

**2024 №2 APREL**

# **BANK BOZOR BIZNES**



- 08.00.01
- 08.00.02
- 08.00.03
- 08.00.04
- 08.00.05
- 08.00.06
- 08.00.07
- 08.00.08
- 08.00.09
- 08.00.10
- 08.00.11
- 08.00.12
- 08.00.13
- 08.00.14
- 08.00.15
- 08.00.16
- 08.00.17

**JURNAL**

**ISSN (E) 3030-3605  
GUVOHNOMA № 224008  
[HTTPS://JBMB.UZ](https://jbmb.uz)**

Bosh muharrir

Elektron nashr.

**Pardayev Olim Mamayunusovich**

Nashrga tayyorlovchi

Mas'ul kotib

**Hamidov Mubin Habibjonovich**

**Bekmurodov Abbos Amiriddinovich**

Tahririyat kengashi a'zolari:

**Pulatov Muxiddin Egamberdiyevich**

SamISI, rektori professori, i.f.d.

**Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich**

SamISI, professor, i.f.d.

**Sharipov To'lqin Saidaxmedovich**

SamISI, O'quv ishlari bo'yicha prorektori, dotsent, i.f.n.

**Berdimurodov Azizjon Shukrilloyevich**

SamISI, Ma'naviy ishlar bo'yicha prorektori, i.f.f.d.

**Zaynalov Jaxongir Rasulovich**

SamISI, professor, i.f.d.

**Urazov Komil Baxromovich**

SamISI, professor, i.f.d.

**Bektemirov Abdumalik**

SamISI, professor, i.f.d.

**Shavqiyev Erkin**

SamISI, professor v.b. i.f.d.

**Tashnazarov Samiddin Nizamovich**

SamISI, professor, i.f.d.

**Mattiiev Ilxom Begmatdo'lobovich**

SamISI professor p.f.d.

**Davronov Shuxrat Zuxurovich**

i.f.d. dotsent.

**Mamatov Baxodir Safaraliyevich**

Toshkent Moliya Instituti i.f.d. professori.

**Rustamov Maqsud Suvonqulovich**

Toshkent Moliya Instituti i.f.d. dotsent

**Niyozov Zuxur Davronovich**

SamISI, dotsent. i.f.n.

**Sayfiddinov Ilxom Fayziddinovich**

Toshkent Moliya Instituti i.f.n.dotsent.

**Karimova Aziza Maxommadrizayevna**

SamISI, i.f.f.d.

**Shukurov Izzatillo Xikmatillayevich**

SamISI, dotsent. t.f.n.

**Sobirov Ilxom Xusanovich**

SamISI, dotsent. i.f.n.

**Abiyev Jahongir Ne'matovich**

SamISI, dotsent. i.f.f.d.

**Xolmamatov Diyor Haqberdiyevich**

SamISI, dotsent.,i.f.f.d.

**Ibodov Kamoliddin Mamatqulovich**

SamISI, dotsent, i.f.f.d.

**Ernazarov Alisher Ergashevich**

SamISI, dotsent v.b., p.f.f.d.

**Tagayev Salim Sobirovich**

TDIU Samarqand filiali dotsent. i.f.f.d.

**Artikov Zokir Sayfiddinovich**

SamISI, dotsent, i.f.f.d.

**Abduxamidov Sarvar Adxamovich**

SamISI, dotsent, i.f.f.d.

**Shirinov Uchqun Abdusalilovich**

SamISI, dotsent, i.f.f.d.

**Normurodov Umid Normurod o'g'li**

SamISI, dotsenti v.b., i.f.f.d.

**Maxmudov Lazizbek Ubaydullo o'g'li**

SamISI, dotsenti v.b., i.f.f.d.

**Juliboy O'g'li Oybek**

SamISI, i.f.f.d.

**Ochilova Xiola Nematovna**

SamISI, i.f.f.d.

**Malikova Dilrabo Muminovna**

SamISI, i.f.f.d.

# M U N D A R I J A

<b>DASTURIY BUDJETLASHTIRISHNING JORIY ETILISHI NATIJASIDA BUDJET MABLAG'LARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI</b>		
<b>Narzullayeva O.Q</b>	<b>5-10</b>	
<b>Toshmurodov T.A</b>		
<b>Narzullayeva O.Q</b>	<b>11-19</b>	
<b>Toshmurodov T.A</b>		
<b>Tursunov F.M</b>		
<b>Narzulloyev J.N</b>	<b>20-26</b>	
<b>Xudoykulov X.Z</b>		
<b>Umurzoqov H.O</b>		
<b>O'rinoiboyeva Y.P</b>	<b>27-31</b>	
<b>Boynazarova M.Sh</b>		
<b>Rustamov J.E</b>	<b>32-39</b>	
<b>Narzullayeva O.Q</b>		
<b>Uktamov M</b>		
<b>O'rinoiboyeva Y.P</b>	<b>40-47</b>	
<b>Obidjonova R.O</b>		
<b>Abduvahobov Sh.X</b>	<b>48-54</b>	
<b>Rustamov J.E</b>	<b>55-61</b>	
<b>Abduvahobov Sh.X</b>		
<b>O'rinoiboyeva Y.P</b>	<b>62-65</b>	
<b>Abdusattorov Sh.O'</b>		
<b>Abduvahobov Sh.X</b>	<b>66-73</b>	
<b>Abduvahobov Sh.X</b>	<b>74-78</b>	
<b>Abduvahobov Sh.X</b>	<b>79-82</b>	
<b>Rustamov J.E</b>		
<b>Abduvahobov Sh.X</b>	<b>83-90</b>	
<b>Abduvahobov Sh.X</b>	<b>91-93</b>	
<b>Abduvahobov Sh.X</b>	<b>94-99</b>	
<b>O'rinoiboyeva Y.P</b>		
<b>Abdusattorov Sh.O'</b>		
<b>Ernazarov A.E.</b>	<b>100-103</b>	
	<b>BANK AXBOROT TIZIMLARINING TASNIFLANISHI</b>	<b>104-109</b>

Bekmurodov A.A	BANK TIZIMI FAOLIYATINI TRANSFORMATSIYALASHDA NAZARIY YONDASHUVLAR EVOLYUSIYASI	110-117
Қаюмова Зилола	МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТНИНГ ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАРИГА ЎТИШ ЙЎЛЛАРИ	118-128
Uzakova K.B	NATURE AND CLASSIFICATION OF	
Khalbekov K.A	INVESTMENTS	129-132

## **DASTURIY BUDJETLASHTIRISHNING JORIY ETILISHI NATIJASIDA BUDGET MABLAG'LARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI**

Narzullayeva Ozoda Qahramon qizi  
SamISI “Bank ishi” kafedrasи o‘qituvchisi.  
**Toshmurodov Tolmas Ashraf o‘g‘li**  
“Bank-Moliya xizmatlari” fakulteti talabasi.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada budget mablag’larining shakllantirilishi va foydalanimishi, dasturiy budgetlashtirishning mohiyati va uning iqtisodiyotimiz rivoji uchun ahamiyati, budget mablag’lari ijrosi samaradorligini oshirishda amalga oshirilayotgan ishlar tahlili, hamda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida dasturiy budgetlashtirish tizimini joriy etishda budget mablag’larini taqsimlovchilarning budget dasturlarini ishlab chiqish, monitoringini yuritish va ularning samaradorligini baholash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 2024-yil 4-yanvardagi 4-sonli qarori haqida keltirib o’tiladi.

**Kalit so’zlar:** budget jarayoni, dasturiy budgetlashtirish, byudjet xarajatlari, samaradorlikka asoslangan budget, budget nazorati, budget shaffofligi.

**Abstract:** In this article, the formation and use of budget funds, the nature of program budgeting and its importance for the development of our economy, the analysis of the work being carried out to increase the efficiency of the execution of budget funds, and the President of the Republic of Uzbekistan "Budget funds in the implementation of the program budgeting system in the Republic of Uzbekistan Decision No. 4 of January 4, 2024 "On approving the regulation on the procedure for developing, monitoring and evaluating the effectiveness of budget programs of the distributors" is cited.

**Keywords:** budget process, program budgeting, budget costs, performance-based budgeting, budget control, budget transparency.

## Kirish

Bugungi kunda mamlakatimizning barcha sohalarida ulkan islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, budjet mablag'laridan samarali va maqsadli foydalanimishini ta'minlash, iqtisodiy va moliyaviy statistika ma'lumotlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda budjet jarayoni ochiqligini va shaffofligini oshirishning yangi mexanizmlarini joriy etish bo'yicha izchil ishlar olib borilmoqda. Ushbu sohada dasturiy budgetlashtirishning joriy etilishi esa ana shunday islohotlarning natijasi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Bunda **dasturiy budgetlashtirish** deganda - budjet tizimi budgetlari xarajatlarini budjet dasturlariga asosan rejalashtirish, ijrosini ta'minlash, nazorat qilish va hisobot tizimi tushuniladi. Dasturiy budgetlashtirishni joriy etishning asosiy maqsadi - davlat moliyasini boshqarish samaradorligini oshirish, shuningdek, budjet jarayonida shaffoflik va hisobdorlik tamoyillarini ta'minlash hisoblanadi. Dastur - maqsadli qabul qilingan qarorlarning uzoq muddatli oqibatlarini hisobga oladi, maqsadlarga erishishning turli usullarini solishtirish va shu asosda rivojlanishning bir necha turlarini amalga oshirish imkoniyatlarini hisobga olgan holda eng maqbul yechimlarni tanlash imkonini beradi. Bu esa qabul qilingan qarorlarning asoslilagini oshiradi, hamda ularning bajarilishini yaxshiroq nazorat qilish imkonini beradi.

Bu sohada amalga oshirilayotgan ishlarning yanada jadal sur'atlarda davom ettirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida dasturiy budgetlashtirish tizimini joriy etishda budjet mablag'larini taqsimlovchilarining budjet dasturlarini ishlab chiqish, monitoringini yuritish va ularning samaradorligini baholash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 2024-yil 4-yanvardagi 4-sonli qarori qabul qilindi. Bu qarorga muvofiq, vazirlik va idoralarning budjet dasturlarini ishlab chiqish, ijrosi va monitoringini yuritish, budjet dasturlarining ijrosi bo'yicha jamlanma hisobotni tuzish va taqdim etish,

budjet dasturlarining ijrosini baholash, budjet dasturlarining ochiqligini ta'minlash tartibi belgilangan.

Yuqorida aytilgan fikrlardan ko'rinish turibdiki, axborotdan foydalanuvchilarga shaffof va ishonchli tarzda ma'lumotlarni yetkazib berish iqtisodiyotimiz rivojlanishi uchun asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

### **Adabiyotlar tahlili**

Davlat budgetidan ajratiladigan mablag'lar ijtimoiy yo'nalish bilan bir qatorda, keljak iqtisodiyoti uchun moliyalashtirishning asosiy manbai bo'lib, iqtisodiyotning uni yangi bosqichga ko'tarishda istiqbolli sohalarni rivojlantirishni moliyalashtirishda muhim o'rin tutadi.

Iqtisodchi A. Avetisyan fikriga ko'ra: "Budget xarajatlari samaradorligi iqtisodiy-ijtimoiy va siyosiy baholashlarni aks ettiruvchi keng tushunchadir. Shuning uchun xarajat va foya kabi tushunchalar miqdoriy ko'rsatkichlar samaradorligi bilan o'lchab bo'lmaydi."

Prof. N.H. Haydarov budget mablag'laridan aslo kechiktirib bo'lmaydigan ehtiyojlarni, avvalo, ijtimoiy sohani, yangi budget tarkibiy yo'nalishlarini moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlash uchungina foydalanish lozimligini ta'kidlab o'tadi.

Iqtisodchilar Strauch, R.Xallenberg, M.J.Fon va Xagenlar Yevropa mamlakatlarida budget prognozini shakllantirishda qabul qilingan dasturlarni barqaror realizatsiyasi va dasturlar o'rtasidagi konvergentlik, ya'ni o'zaro uyg'unlikni ta'minlashning omili ekanligini tadqiq qilishgan.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Ushbu maqolada budget mablag'laridan samarali foydalanish, budget xarajatlarining samaradorligini oshirish, dasturiy budgetlashtirish tizimining ahamiyati va zarurligi bo'yicha xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning ishlari o'rganildi va tahlil qilindi. Tahlil jarayonida kuzatish, tahlil qilish usullaridan hamda statistik ma'lumotlardan foydalanildi. Shuningdek, ushbu sohada amalga

oshirilayotgan islohotlar va bunda amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar haqida xulosalar keltirib o'tilgan.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi**

Dasturiy budgetlashtirishning joriy etilishi bilan budget jarayonining barcha ishtirokchilarining vazifalari va funksiyalari o'zgaradi. Budget qarorlarini qabul qilish uchun asos - iqtisodiy tasnifning alohida moddalari yoki muayyan davlat funksiyalarini bajarish xarajatlari bo'yicha xarajatlar miqdori emas, balki natijalarga erishish uchun maqsadli dasturlardir. O'zbekistonda 2020-2024-yillarda davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasini amalga oshirishning yo'naliшlaridan biri soliq - budget siyosatida samaradorlik va samaradorlikka o'tgan holda strategik yondashuvni ishlab chiqish hisoblanadi. Budgetlashtirishning dasturiy usulini joriy etish orqali budget mablag'lari samaradorligini oshirish mumkun. Dasturiy budgetlashtirishda budget ijrosi belgilangan maqsad va vazifalarni bajarish nuqtai nazaridan baholanadi. Buning uchun maqsad va vazifalarga erishish darajasini tavsiflovchi, budget xarajatlari samaradorligini monitoring qilish va baholash imkonini beruvchi ko'rsatkichlar tizimi ishlab chiqilmoqda.

Hozirgi kunda asosiy iqtisodiy hamkorlarimiz bo'lgan davlatlarda iqtisodiy o'sishning pasayishi holatlari kuzatilayotganiga qaramay, o'z vaqtida amalga oshirilgan keng ko'lamli va izchil islohotlar O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror o'sish sur'atlarini saqlab qolish imkoniyatini berdi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yilning to'qqiz oyida mamlakat yalpi ichki mahsuloti hajmi 5,8 foizga, xizmatlar sohasi 6,5 foizga, sanoat 5,7 foizga, qurilish ishlari 5,6 foizga va qishloq xo'jaligi 4,1 foizga o'sdi. Aholi jon boshiga umumiyl daromadlar 14,3 foizga oshib, 14,4 mln. so'mni tashkil etdi. Hisobot davrida davlat budgeti daromadlarining hajmi 162,9 trln. so'mni tashkil etib, 2022 yilning mos davriga nisbatan 16,6 trln. so'mga oshirib bajarilishiga erishildi.

Mamlakatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini va budget mablag’laridan foydalanishning natijalarini hisobga olgan holda, strategik maqsadlar asosida ishlab chiqilgan dasturlarni amalga oshirish muhim. Ularning natijalari bilan O‘zbekiston Respublikasi budget tizimi budgetlari xarajatlarini taqsimlash jarayonining o‘zaro bog’liqligini ta’minlaydigan budget ijrosini rejalashtirish, bajarish va nazorat qilish tizimi yaratiladi.

### **Xulosa**

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkunki, budget xarajatlarining samaradorligini va natijadorligini oshirishda dasturiy budgetlashtirish tizimining joriy etilishi natijasida vazirliklar va idoralarga ajratilgan budget mablag’larining samaradorligi va natijadorligini baholash mexanizmi yaratiladi. Davlat budgeti, budgetdan tashqari mablag’lar hamda grant mablag’laridan foydalanishning shaffofligi va ochiqligi ta’milanadi.

Shuni ta’kidlash joizki, davlat boshqaruvining barcha darajalarida kadrlar tayyorlanmasdan va salohiyatini oshirmsandan turib, dasturiy budgetlashtirishni qo’llash jarayonida qiyinchiliklar va muammolar yuzaga keladi. Ushbu jarayonni to’g’ri tushunish va qo’llash uchun kadrlar tayyorlashga bo’lgan ehtiyojni baholash, tegishli o’quv dasturlarini ishlab chiqish va bu sohada treninglar o’tkazadigan trenerlarni tayyorlash zarur.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida dasturiy budgetlashtirish tizimini joriy etishda budget mablag’larini taqsimlovchilarining budget dasturlarini ishlab chiqish, monitoringini yuritish va ularning samaradorligini baholash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 2024-yil 4-yanvardagi 4-sonli qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2020-2024-yillarda davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 24.08.2020 yildagi 506-sod qarori.

3. Haydarov N.H. Byudjet daromadlarini barqarorlashtirish va samarasiz xarajatlarni qisqartirish yo'llari. // O'zbekistonda moliyaviy sektorning rolini oshirish va unda ilg'or xorij tajribasidan foydalanish» mavzucidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari to'plami. –T.: TMI. «IQTISOD-MOLIYA», 2015. 43 b.

4. Tereza Ter-Minasyan, Pedro P. Parente, Pedro Martines-Mendes. Создание казначейства в странах с переходной экономикой. МВФ. 1995г.

5. Avetisyan I.A. Об эффективности государственного бюджета и бюджетных расходов //Проблемы развития территории. – 2005. – Т. 2. – №. 29.

6. Bekmurodov, A. A. "Improving the introduction of digital technologies in commercial Banks."Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 9.10 (2021): 355-357.

7. Bekmurodov, A. A. "Tijorat Banklari Faoliyatini Raqamlashtirish va Informatsion Texnologiyalarni Rivojlantirish Istiqbollari."Экономика и социум 6-1 (109) (2023): 87-89.

8. [https://uza.uz/oz/posts/byudjet-xarajatlarining-samaradorligini-oshirish-nimalarga-bogliq\\_545891](https://uza.uz/oz/posts/byudjet-xarajatlarining-samaradorligini-oshirish-nimalarga-bogliq_545891)

## ИСЛОМ БАНК ТИЗИМИДА ШАРИАТ ҚОНУНЧИЛИГИ АҲАМИЯТИ ЖИҲАТЛАРИ.

**Нарзуллаева Озода Қаҳрамон қизи**  
**СамИСИ “Банк иши” кафедраси о‘қитувчиси,**  
**Тошмуродов Толмас Ашраф ўғли**  
**“Банк-Молия хизматлари” факултети талабаси.**

**Аннотация:** Ушбу илмий мақолада ислом банк тизимида шариатниң маҳсус қонунчилеги ҳамда исломий банклар молия тизимининг бир қисми сифатида Марказий банк томонидан назорат қилиниши ва тартибга солиниши ҳақида ёритиб берилган.

**Калит сўзлар:** исломий банк, исломий ва позитив қонун, шариатнинг мақсади, исломий молиялаштириш тамойиллари.

**Abstract:** This scientific article describes the special Sharia legislation on the Islamic banking system and the control and regulation of Islamic banks by the Central Bank as part of the financial system.

**Key words:** Islamic banking, Islamic and positive law, purpose of Sharia, principles of Islamic financing.

Ҳар қандай давлат ёки ташкилотни, уни тартибга солиб турувчи меъёрий ҳуқуқий жиҳатлари мавжуд бўлган тақдирда фаолият юритади. Мусулмон инсонларнинг ҳаёт тарзини тартибга солиб турувчи қонун - қоидалар мажмуи бу - шариатdir. Шариат бу 1500 йиллик маънавий, ахлоқий ва ҳуқуқий ҳамда иқтисодий тизим ҳамdir. Ислом молияси манашу шариат қонун - қоидаларига асосланган иқтисодий тизим ҳисобланади.

Бугунги кунда исломий банклар икки шаклдаги меъёрий ҳуқуқий хужжатларга, яъни исломий ва позитив қонунларга бўйсунишга мажбурдирлар. Исломий банклар томонидан риоя этилиши шарт бўлган исломий қонунлар шариат ҳуқуқлари номи билан машхурдир. Бошқа томондан, позитив ҳуқуқлар – банклар ўз фаолиятини олиб борадиган мамлакатлар ҳукумати томонидан ўрнатилган меъёр ва қоидалардир.

Шариатнинг бош мақсади – инсон ҳаётини яхшилик асосида қуриш ва ёмонликлардан тозалашдир. Шариат ҳуқуқи тўрт манбадан келиб чиқади:

1. Қуръон
2. Ҳадис
3. Ижмо
4. Қиёс.

Ушбу меъёрий ҳуқуқий жиҳатларининг ривожланиш тарихи.

1950 - 1960-йиллар:

- Исломий олим ва иқтисодчилар исломий банк ва молия тизими андозаларини тақдим эта бошладилар.
- Қўшалоқ музораба концепсияси исломий банкинг воситаси сифатида тақлиф этилди.
- Исломий молиялаштириш тамойиллари қўллана бошланди.

1970-1980 - йиллар:

- Лизинг, музораба, фойда ва заарарларни тақсимлаш каби масалалар қамраб олинди.
- Анъанавий банклар “исломий ойна”лар воситасида исломий маҳсулотлар тақдим эта бошладилар.
- ИХТ қошида Фиқҳ академияси ва бошқа Фиқҳ кенгашлари ташкил этилди.

1990-2000-йиллар:

- Исломий Доу Жонс индекси жорий этилди.
- Назорат ва тартибга солиш масалаларига эътибор берила бошланди.
- AAOIFI (бухгалтерия ва аудит ташкилоти) стандартлари чоп этилди.
- Корпоратив назорат ва хатарларни бошқаришга эътибор берилди.
- Исломий банкларни қўшиб юбориш орқали капитализатсия қилинди.
- Активлар билан таъминланган қимматли қоғозлар бозори ташкил этилди.

- Малайзияда исломий молиявий хизматлар бўйича Кенгаш таъсис этилди (2002).

- Бахрайнда Халқаро исломий рейтинг ташкилоти таъсис этилди.

Шариат сўзи шаръий сўзидан келиб чиққан бўлиб, сувга элтувчи йўл маъносини, шарања феъли эса сўзма-сўз сувга олиб борувчи аниқ йўлни белгилаш ёки ажратиш деган маънони англатади. Диний маънода эса мукаммал ҳаётга олиб борувчи йўл ёки яхши ҳаёт учун катта йўл маъносини билдиради. Бошқача айтганда, шариат инсон ҳаётини тўғри йўлга йўналтирувчи восита ҳисобланади

Тўғри йўл сўзидан қонун сўзининг маъноси келиб чиққан. Шариат сўзи, шунингдек, дин сўзи билан боғлиқ бўлиб, у бўйсуниш ёки эргашишни англатади. Шариат – усуллар ва йўлларнинг биритирилиши бўлиб, унинг эгаси Аллоҳ таолодир. Шариат қирраларини икки қисмга бўлиш мумкин: ибодат ва муомала. Ибодат мусулмонларнинг Аллоҳ таолога амалий масалалар билан итоатларини ифодаласа, муомала инсонлар ўртасидаги муносабатларни ифодалайди. Демак, сиёsat, иқтисод ва ижтимоий фаоллик каби жиҳатларнинг барчаси муомала амаллари доирасига тааллуқлидир. Шу билан бирга молия ва банк фаолияти иқтисодий фаолиятнинг бир қисми ҳисобланаби, ушбу фаолиятлар шариат тамойиллари билан муомала орқали боғланади.

Маълумки, шариат – бу жуда ҳам қадими (таксминан 1500 йиллик) диний, маънавий–ахлоқий, ҳуқуқий тизим. Бироқ унинг молиявий қисми бир неча асрлик «парокандалик» давомида унутилди ва мусулмон Шарқининг ўз анъанавий ҳуқуқий, сиёсий, ижтимоий, иқтисодий–молиявий, ҳамда таълим тизимлари асосан Ғарб мамлакатларида пайдо бўлган муқобил тизимларга алмаштирилди.

Шариатнинг асосий мақсади инсонларнинг бу дунёда ва охиратдаги саодатини таъминлаш ва машаққатларини энгиллатишдан иборатdir. Инсонлар такво қилишга буюрилдилар, аммо унинг маъноси бу дунё

гўзалликларидан воз кечиш эмас, балки саодатга этакловчи исломий меъёрлар доирасида дунёнинг барча гўзаллик ва қулайликларидан фойдаланишга рухсат этилгандир.

Ижмо (консенсус) дастлабда маълум бир даврдаги малакали ҳуқуқшунос олимларнинг яқдиллиги бўлиб, улар қабул қилган қарор хатолардан холи ҳисобланади.

Имом Шофеъий шариат ҳуқуқи манбаси сифатида Қуръон ва ҳадисдан сўнг ижмони қўрсатган биринчи мужтаҳид ҳисобланади. Имом Шофеъий барча мусулмон уммати эришган фақат битта яқдил келишув бўлади, деган фикрни айтиб ўтган. Мана шундай тарздаги ижмога барча риоя этиши керак ва у жамият ижмоси деб аталади.

Шариатнинг якуний манбаси – қиёсdir. “Қиёс” сўзи ўлчанганд ёки таққосланган (бирон-бир нарсани) маъносини билдиради. Диний амалиётда ёки таълимот масаласида қиёс ечилиши қийин бўлган масала ва муаммолар ечими бўйича қарорларга ёндашувни билдиради. Бу ёндашув оқилликдан фойдаланишни воқеликдаги сабаб ва исботларни топиш йўли билан, шунингдек, мавжуд муаммоларни Қуръон ва ҳадисдаги шунга ўхшаш муаммолар ечими бўйича солишириш билан амалга оширилади.

1. Усмонийлар салтанатининг “Мажалла ал-Аҳком ал- Адлия” ёки “Мажалла” номи билан машхур Кодексидир.

2. Туркия хукумати 1926 йилнинг 17 февралида Швейсария кодексига асосланган янги қонунларни қабул қилишга қарор қилди.

3. Малазияда Абдул Ҳалим ал-Муҳаммадий 2001 йилда “Унданг-унданг МУАМАЛАТ & АПЛИКАСИНЯ кепада продук-продук пербанкан Ислам” (Муомала қонунлари ва уларнинг исломий банк маҳсулотларида қўлланилиши) номли асари.

4. ИХТ (Ислом Ҳамкорлик Ташкилоти) фикҳ Академияси фатволари, Малайзиядаги қимматбаҳо қоғозлар бўйича Комиссия шариат маслаҳат

кенгashi фатволари ва Бенк Муамалат Малейжа фатволар Кенгashi фатволари.

Исломий банклар молия тизимининг бир қисми сифатида Марказий банк томонидан назорат қилинади ва тартибга солинади. Ҳозирги вақтда марказий банклар мамлакат иқтисодий тизимини ривожлантириш йўлида исломий банкларни келажаги бор тармоқ сифатида баҳоламоқда. Шунинг учун улар фаолиятини тартибга солиш ва назорати учун алоҳида ихтисослашган бўлим очиш зарурати пайдо бўлди.

Ақида - мусулмонларнинг ягона Аллоҳга ва Унинг қўрсатмалариға иймон келтиришнинг барча қирраларини қамраб олади.

Аҳком – хукм;

Муснад - санад сўзидан келиб чиқиб, таяниш, суюниш маъносини англатади.

Мужтаҳидлар - ислом олимлари бўлиб, улар шаръий ҳукмларни мустақил асослаш учун ваколатли ҳисобланганлар.

Ижтиҳод - Ислом олимларининг буткул жиддий тарзда у ёки бу диний масалани муҳокама этиш жараёни

Хадис - тарих, ҳикоя қилиш ёки нутқ сўзлаш маъноларини билдиради.

Суннат – йўл, қоида, турмуш тарзи ёки ҳаракат усули маъноларини билдиради.

Саҳиҳ – ишончли

Фарз ёки вожиб амаллар. Барча мусулмонлар томонидан сўзсиз бажарилиши лозим бўлган амаллар. Бажарилиши рағбатлантирилади, бажарилмаслиги жазоланади.

Суннат, мандуб ёки мустаҳаб амаллар. Бажарилиши ва амал қилиниши тавсия этилади, лекин бажарилиши мажбурий эмас. Бажарилиши рағбатлантирилади, бажарилмаса жазоланмайди. Суннат амалнинг бажарилмаслиги қиёматда Пайғамбаримиз соллаллоҳу алайҳи васалламнинг иқоблари ва маломатларига сабаб бўлиши мумкин.

Жоиз ёки мубоҳ амаллар. Бажарилиши ёки бажарилмаслиги ихтиёрий бўлиб, уларни тарк этганлар жазоланмайди.

Макруҳ амаллар. Бажарилиши маъқулланмайдиган, жазоланмайдиган ва тақиқланмайдиган амаллар.

Ҳаром амаллар. Бажарилиши ман этилган ва жазоланадиган амаллар.

Жомеъ - жамланган

Мусаннаф - ҳамкорликда бажарилган

Мақбул ҳадислар – ишончли, яъни ҳасан ёки саҳиҳ сифатида гурухланган ва барча талабларга жавоб берадиган ҳадислардир.

Маъруф ҳадислар – ишончлилиги озлиги сабабидан ўз мавқеига монанд бошқа ҳадислар билан таққосланиши шарт бўлган ҳадислардир.

Махфуз ҳадислар – мавқеи жиҳатидан шозз ҳадислардан юқори турувчи ҳадислар ҳисобланади.

Рад этилган ҳадислар - мардуд, мункар, матрук, матруҳ ва мавзу сифатида гурухланади.


Мардуд ҳадислар - кучсиз ва ровийси номаълум ҳадисларни ўз ичига олиб, уларнинг ривояти олдингиларидан фарқ қиласди.

Мункар ҳадислар - фақат бир ровийдан этиб келган ва аввалги ривоятлардан фарқ қилиши билан ажралиб туради.

Матрук ҳадислар - ҳадисларнинг ровийлари ноаҳлоқий ишлари билан назарга тушган ёки ёлғончи деб ҳисобланган кишилардир.

Матруҳ ҳадис - ҳадисларнинг ҳам матрук ҳадислар билан мавқеи бир

Мавзу ҳадислар - атайин тўқиб чиқилган ва энг хавфли ҳадис.



### 1- Расм. Исломий молиявий хизматлар индустряси

Юқорида келтирилган ма'lумотларга асосланиб, Ўзбекистонда ислом молия хизматлари саноатининг кенг қамровли жорий этилиши мамлакат учун қуйидаги имкониятларни очишига ишонамиз:

- хориждан келаётган инвестициялар ҳажмини ошириш ва диверсификатсиялаш;
- банк тармоғида ҳалол ва шаффофф рақобат мұхитини яратиш ҳамда банк тизими активларини диверсификатсиялаш имкониятини яратиш;
- аҳоли ва бизнес вакиллари ихтиёрида бўлган бўш пул маблағларининг иқтисодиёт ривожланишида максимал иштироқини та'минлаш;
- мамлакатда капитал бозорини ривожлантириш ва диверсификатсиялаш;
- кўплаб янги иш ўринлари яратиш;

- аҳолининг молиявий саводхонлигини ошириш орқали, молия бозоридаги фаоллигини кўтариш;
- Ислом молия хизматлари индустриясини ривожлантириш орқали мамлакатда инфратузилмани мувофиқлаштириш ва янгилаш;
- янги молиявий муассасалар ташкил қилиш;
- камбагалликка қарши курашиб давлат дастурини амалга оширишга ҳисса қўшиш;
- янги йўналишда кадрлар тайёрлаш дастурини яратиш.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Ahmed, S. (1989), Islamic Banking and Finance, Journal of Monetary Economics, Vol 24, pp. 157-167.
2. Blitz, R. and Long, M. (1965), The Economics of Usury Regulation. Journal of Political Economy, Dec., pp. 608-619.
3. O Akhmadjonov, A Abdullaev, B Umarjonov, M Shamsiddinov. (2021). ISLOM MOLIYASINING XUSUSIYATLARI. Scientific progress 2 (8), 634-638.
4. O Akhmadjonov, A Abdullaev, S Yusupuv, J Anvarov. (2021). ISLOM BANKCHILIGIDAGI XAVF. Scientific progress 2 (8), 639-642.
5. O Akhmadjonov, A Abdullaev, M Shamsiddinov, B Umarjonov. (2022). ISLAMIC FINANCE. Scientific progress 3 (2), 48-50.
6. Bekmurodov, A. A. "Tijorat banklari faoliyatida transformasiyalanish jarayonlarining asosiy yo'nalishlari." Форум молодых ученых 6 (82) (2023): 3-9.
7. Bekmurodov A. A. Banklarni trasformatsiya qilish sharoitida masofadan xizmat ko'rsatish tizimini ommalashtirish //Экономика и социум. – 2023. – №. 6-1 (109). – С. 83-86.
8. Sharipova N. D., Jurayev I. S. Theoretical foundations of monetary policy// international journal of innovations in engineering research and technology. – 2023. -Т. 10. -С. 171-173.

9. Sharipova N. D., Aliboyev L.Sh. The importance of anti-inflationary policy and inflation trading in uzbekistan// international multidisciplinary journal for research & development. -2023. -T. 10. -C. 92-94.
10. Bekmurodov, A. A. "Kichik biznes sub'ektlarini tijorat banklar tomonidan kreditlashda xorij tajribasi." Теория и практика современной науки 6 (96) (2023): 20-24..
11. Tursunov Faridun Mustafayevich. (2023). Opportunities for remote banking services to grow in republic of uzbekistan's commercial banks. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(11), 4–7.

## JISMONIY SHAXSLARGA KREDIT XIZMATLARINI KO'RSATISHNING AHAMIYATI

**Tursunov Faridun Mustafoyevich**

SamISI, "Bank ishi" kafedrasi assistenti

tursunovfaridun4330@gmail.com

**Narzulloyev Jamolxon Nabixon o'g'li**

SamISI talabasi

narzulloyevjamolxon06@gmail.com

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada kredit va bank xizmatlari tushunchasi, uning zamonaviy tijorat banklari faoliyatidagi roli va o'rni, jismoniy shaxslarga kredit xizmatlarini ko'rsatishni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari, afzalliliklari va kamchiliklari, jismoniy shaxslarga kredit xizmatlarini ko'rsatishda uchraydigan ba'ze muammolar o'rganib chiqilgan va bu muammolarni hal etish uchun ba'ze amaliy taklif va tavsiyalar berilgan. O'zbekiston tijorat banklari amaliyotida jismoniy shaxslarni kreditlash haqidagi barcha to'plangan statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** kredit, debitor, ssuda, korporativ mijoz, onlayn-banking, internet-banking, dibank, onlayn tahlil, ekotizim, robotlashtirish, axborot tizimi, to'lov tizimi, ekspress kreditlar, overdraft.

**ABSTRACT:** This article examines the concept of credit and banking services, its role and place in the activities of modern commercial banks, the main directions, advantages and disadvantages of the development of the provision of credit services to individuals, some problems encountered in the provision of credit services to individuals, and some practical proposals and recommendations are given to solve these problems. In the practice of commercial banks of Uzbekistan, it was analyzed on the basis of all accumulated statistics on the lending of individuals.

**Keywords:** credit, debtor, loan, corporate client, online banking, internet banking, dibank, online analysis, ecosystem, robotization, information system, payment system, express loans, overdraft.

## KIRISH

O‘zbekiston Respublikasida jismoniy shaxslarni kreditlash dolzarbligi kredit tizimini jadal rivojlanishi bilan bog‘liq. Jismoniy shaxslarni kreditlashni o‘rganishning asosiy mezoni bank xizmatlarini yanada rivojlantirish muammolari va istiqbollarini o‘rganish hisoblanadi. Zamonaviy dunyoda iqtisodiyotning evolyutsiyasini mamlakat pul aylanmasining tezlashtiruvchisi bo‘lgan innovatsion bank texnologiyalaridan samarali foydalanmasdan amalga oshirish mumkin emas.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga binoan “2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi”<sup>1</sup> ishlab chiqildi. Strategiyani amalga oshirish bo‘yicha birqator maqsadli ko‘rsatkichlar rejallashtirildi. Strategiyaning asosiy maqsadi mamlakatimizda samarali bank tizimi va uni faoliyatini rivojlantirish hisoblanadi. Bu maqsadlarni amalga oshirishda jismoniy shaxslarni kreditlashning roli katta[1].

Jismoniy shaxslarga kredit berish shartlari o‘ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi aniq va bu xizmatni taqdim etish tartibi qat’iy tartibga solinadi. Shuning uchun, agar jismoniy shaxs pulga muhtoj bo’lsa, uni olish uchun bir qator talablarni bajarish kerak bo’ladi.

Yangi texnologiyalarning joriy etilishi, aloqa vositalarining rivojlanishi bankning turli hududdagi mijozlarga xizmat ko‘rsatishi, shuningdek, qog‘ozbozlikni qisqartirish imkonini beradi. Bank tizimining rivojlanishi bir qancha sabablarga bog‘liq bo‘lib, ular orasida birinchi navbatda yangi axborot texnologiyalari joriy etilishi bilan iste’molchi turmush tarzining o‘zgarishi hisoblanadi.

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagи PF-5992-sonli “2020 — 2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/4811025>.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mavzuga oid birqancha olimlarning tadqiqot ishlari va ilmiy nazariyalari bilan yaqindan tanishib chiqildi. Xususan, Rus iqtisodchisi Lavrushin O.I. fikriga ko'ra "Banklar jismoniy shaxslarga har xil turdag'i kreditlarni taklif qiladi. Har bir tur o'z dizayni, sotib olish va foydalanish xususiyatlariga ega. Bir yoki boshqa turdag'i kredit mahsulotini tanlashda, qarz mablag'lari qanday maqsadlarda talab qilinishini tushunishga arziydi." [2]. Jarkovskaya E.P. fikricha "Jismoniy shaxslarga kredit berishning eng maqbul variantini taklif qilish uchun bank tashkiloti qarz oluvchidan uning xizmatiga o'tishni talab qiladigan holatlar tez-tez uchraydi. Shuning uchun kredit olish uchun bankingizga murojaat qilish eng yaxshi taklifga aylanadi"[3].

Yuqordagi fikr-mulohazalarni umumlashtirgan holda kredit -bu pul mablag'lari, tovar va xizmatlarni kelishilgan foiz to'lab qaytarib berish sharti bilan ma'lum muddatlarga qarzga berish. Qarzga mablag' beruvchi tomon kreditor (davlat, bank, korxona, xususiy shaxs va boshqalar), ssuda oluvchi tomon esa debitor (qarzdor) deyiladi. Kredit kelishuvi qarzdan foydalanish shartlari qayd etilgan shartnomaga bilan rasmiylashtiriladi. Kredit muomalasi qarz beruvchi va qarz oluvchi o'rta sidagi iqtisodiy munosabatdir. Lekin har qanday qarz munosabati ham kredit bo'la olmaydi. Kredit munosabatida olingan mablag' qaytarib berilishi, foydalanilgani uchun haq (kelishilgan foizda) to'lanishi, muddatli, ma'lum tovar va nomoddiy aktivlar bilan ta'minlangan bo'lishi, maqsadli ishlatilishi shart.

## NATIJALAR

Jismoniy shaxslarni kreditlashning dolzarbligi yildan-yilga ortib bormoqda. Moliyaviy institutlar o'z mijozlariga qarz oluvchilarining moliyaviy ehtiyojlarini qondirish uchun mo'ljallangan barcha yangi mahsulotlarni taklif qilishadi. Ko'pincha foizlarni ortiqcha to'lash fakti ham jismoniy shaxsning kredit olishiga to'sqinlik qilmaydi. Zamonaviy iqtisodiyotda kreditlash asosiy moliyaviy instrumentlardan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda oddiy iste'molchilar orasida

qaysi turdag'i kreditlar eng mashhur ekanligini va ularning xususiyatlari qanday ekanligini haqida ma'lumot beramiz.

Kreditlash jarayoni bir nechta tamoyillar asosida amalga oshiriladi:

- kreditning muddatliligi;
- kreditning qaytarilishligi;
- kreditning ta'minlanganligi;
- kreditning to'lovligi;
- kreditning maqsadliligi;
- kreditning samaradorligi.

Jahon amaliyotida bank kreditlarining yagona, umumlashgan tasnifi yo'q, chunki kreditlarni turli xil shakllari har bir mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasiga, ularning urf-odatlariga, aholi orasida ssudalarni berish va qaytarish tarixan shakllangan usullariga bog'liq bo'ladi.

Fuqaro o`z mablag`lari ko`zlangan maqsadga erishishga imkon bermasa, kredit muassasasi bilan shunday bitim tuzadi. Masalan, kutilmagan vaziyatlarda kvartira sotib oling yoki ta'mirlang. Banklar turli xil kredit dasturlarini taklif qilishadi. Mijoz faqat mo'ljallangan maqsadni, shartlarni tanlashi va ro'yxatdan o'tish uchun zarur hujjatlarni taqdim etishi kerak. Banklarda qanday kreditlar bor, biz ushbu maqolada tahlil qilamiz.

Jismoniy shaxslarga beriladigan kreditning turlari quyidagilar:

1. Iste'mol krediti-turli maqsadlar uchun.
2. Avtomobil krediti-yangi yoki eski mashina sotib olish uchun.
3. Ipoteka-uy-joy sotib olish uchun.
4. Ta'lim-oliy mutaxassis olishta'lim yoki malaka oshirish.
5. Overdraft-bu kredit bo'lib, bank tomonidan foizlar qoplangan holda va qisqa muddatga pul mablag'lari plastik kartaga o'tkaziladi.
6. Kichik biznes uchun kredit.
7. Ishonchli kredit-qisqa muddatga kichik miqdor va bitta hujjat.
8. Shoshilinch ehtiyojlar uchun kredit.

Banklar jismoniy shaxslarga ixtiyoriy ravishda kredit berishadi, lekin turli kredit shartlarida. Albatta, kerakli miqdorni o'zingiz tanlashingiz mumkin, ammo bu juda uzoq vaqt talab etadi. Shuningdek, inflyatsiya to'plangan miqdorni qadrsizlantirishi mumkin. Shuning uchun, aksariyat shaxslar moliyaviy ehtiyojlarni qondirish uchun eng qulay variantni tanlashadi.

Ko'pgina banklar jismoniy shaxslarga kreditlarni ichki qayta moliyalashni taklif qilishadi. Qarz oluvchi ma'lum miqdorni ko'proq sodiq shartlarda oladi va eski kreditni qoplashi kerak.

Moliyaviy muassasa mijoz bilan shartnomani qayta ko'rib chiqadi, unda yangi shartlar va foiz stavkalari belgilanadi. Xarajatlarni kamaytirish va hayot sifatini yaxshilash imkonini beruvchi juda qulay mexanizm.

Qoidaga ko'ra, agar zarurat bo'lsa, bank kredit berishga rozi bo'ladi. Agar mijozning moliyaviy ahvoli o'zgargan bo'lsa, bank kredit shartnomasini qayta imzolashga rozi bo'ladi. Bunday istiqbol, agar qarz oluvchi umuman to'lay olmasa, kelajakda sud jarayoniga kirishdan ko'ra maqbulroqdir.

Har qanday tijorat korxonasi uchun har bir yangi mijoz qo'shimcha daromadni anglatadi. Ammo agar firma o'z mahsulotini yoki xizmatini butun bir kompaniyaga sotishga muvaffaq bo'lsa, foyda kattaroq tartibda ko'payishi mumkin. Jismoniy shaxslarni kata ko'lамини jalb qilish har doim ajoyib istiqbollarni va yangi rivojlanish imkoniyatlarini nazarda tutadi.

### **Jismoniy va yuridik shaxslarga ajratilgan kredit qoldig'i to`g`risida kreditlar turlari bo`yicha ma'lumot<sup>2</sup> (01.04.2024)**

Ko`rsatkich nomi	mlrd. so`m
<b>Jami kredit qoldig'i</b>	<b>340 259</b>
<b>Jismoniy shaxslarga ajratilgan kredit qoldig'i</b>	<b>72 760</b>
Ipoteka kreditlari	37 820
Mikroqarzlar	12 021
Iste'mol kreditlari	11 890

<sup>2</sup> www.cbu.uz

Ta'lim kreditlari	415
Tadbirkorlikni rivojlantirish uchun ajratilgan kreditlar	10 590
Boshqa kreditlar	24
<b>Yuridik shaxslarga ajratilgan kredit qoldig`i</b>	<b>267 499</b>
Kredit tashkilotlari bo'lмаган yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar	249 291
Lizing va faktoring	2 131
Banklararo kreditlar	1 500
Mikrokreditlar	9 973
Sindisiyalashtirilgan kreditlar	4 603

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatmoqdaki, jismoniy shaxslarga ajratilgan kredit qoldig`i 72760 mld so'mni tashkil etmoqda. Bu esa yuridik shaxslarga ajratilgan kredit qoldig`ining 27,2% ni tashkil etmoqda. Bundan kelib chiqadiki, jismoniy shaxslarni kreditlash yuridik shaxslarga nisbatan qariyb 4 marta kam.

## XULOSA

Bank tashkilotlari doimiy mijozlarga sodiqliklarini bildiradilar, chunki ular o'zlarining moliyaviy obro'si va faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini yaxshi bilishadi. Banklar ba'zi korxonalarga maqsadli dasturlardan foydalanishni taklif qiladilar, ular bo'yicha qarz mablag'lari uskunalar sotib olishga, qimmat elementlarni sotib olishga sarflanishi mumkin, ular ko'pincha garov sifatida ishlaydi.

Shuningdek, yaqinda boshqa banklarda ochilgan kreditlarni qayta moliyalashtirish dasturi ham muvaffaqiyatli ishlab chiqildi. Agar mablag'lar uzoq vaqt davomida o'z vaqtida kiritilsa, tasdiqlash kafolatlanadi. Boshqacha qilib aytganda, belgilangan bank qoidalariga mos keladigan barcha zarur shartsharoitlarga ega bo'lgan holda, siz jismoniy va yuridik shaxslarga kredit berish tartibidan o'tishingiz mumkin.

Banklar jismoniy shaxslarga har xil turdag'i kreditlarni taklif qiladi. Har bir tur o'z dizayni, sotib olish va foydalanish xususiyatlariga ega. Bir yoki boshqa

turdagi kredit mahsulotini tanlashda, qarz mablag'lari qanday maqsadlarda talab qilinishini tushunishga arziydi.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-sonli "2020 — 2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.  
<https://lex.uz/docs/4811025>.
2. О. И. Лаврушин, И. Д. Мамонова, Н. И. Валенцева [и др.]; под ред. О. И. Лаврушина. Банковское дело: учебник – Москва: КноРус, 2016. – 800с.
3. Жарковская, Е.П. Банковское дело: для студентов вузов по специальностям «Финансы и кредит», «Бухгалтерский учет, анализ и аудит» / Е. П. Жарковская. – 4-е изд., перераб. и доп. – М.: Омега-Л, 2012. – 452 с.
4. Karimova A.M., Tursunov F.M. Tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish istiqbollari. Monografiya. 2023-yil. 6-12 betlar.
5. Tursunov Faridun Mustafoyevich. O'zbekiston Respublikasida bank xizmatlari va ularning rivojlantirish ahamiyati. SCHOLAR, 1(34), 232-238 betlar. 2023 y.
6. Abduvaxobov Shaxzod Xolmo'min o'g'li. Possibilities of Increasing the Activity of Banks in the Securities Market. Journal of Advanced Research and Scientific Progress (JARSP). Volume 02. (159-162).

## Islomiy banklarni tashkil etish maqsadi va ularning biznes falsafasi

Xudoykulov Xusniddin Ziyadullayevich.

SamISI Bank ishi” kafedrasi o‘qituvchishi

Umurzoqov Husan Obitjon o’g’li

Bank ishi-420 guruh talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu ilmiy maqolada islomiy moliya biznesini tashkil etishda ishlataladigan biznesning falsafa va vazifalari, butun dunyodagi islomiy banklar faoliyatining asosi bulgan shariat tamoyillari haqida so‘z boradi. Bunday banklar qanday boshqarilishi mumkinligini tushunish imkonini beradi.

**Kalit so’zlar:** islomiy bank, islomiy moliya, biznes falsafasi, hamkor korxona, ochiq hissadorlik, dividend.

**Abstract:** This scientific article talks about the philosophy and tasks of business used in the organization of Islamic financial business, and the principles of Sharia, which are the basis of the activity of Islamic banks all over the world. It gives an understanding of how such banks can be managed.

**Keywords:** Islamic banking, Islamic finance, business philosophy, joint venture, open equity, dividend.

### **Kirish**

Har qanday moliyaviy muassasalar o‘z oldiga provardida yuqori foyda olishni maqsad qilib qo‘yadi - bu ular faoliyatining asosi xisoblanadi. Ushbu faoliyat asosini muassasa hissadori va boshqaruvchilarining falsafasiga bog‘liqdir. Biznesning maqsadi foydaning eng yuqori darajasiga erishish ekanligini iqtisodiy nazariyalar tasdiqlaydi. Ushbu rag‘bat omili tashkil etilgan korxona xususiy mulkchilik shakliga ega bo‘lgan holatda yanada yorqin namoyon buladi, chunki bank egasi foydaning aksari o‘ziga tegishli bo‘lishini ko‘zlab yuqori darajada foyda ko‘rish uchun harakat qiladi. Hamkorlikda tashkil etilgan tijorat banklarida ham shunday holatni kuzatish mumkin - har bir biznes hamkor tashkilot muvaffaqiyati uchun o‘z sa’y-xarakatlarini sarflaydi. Xuddi shuni egasi tomonidan boshqariladigan yopiq hissadorlik jamiyatlari timsolida ham kuzatish mumkin. Ochiq hissadorlik jamiyati shaklida tashkil etilgan

korxonalarga ma'muriy va boshqarish sohasida ko'shimcha tarzda yordamchi idora xodimlari kerak bo'ladi. Bu yerda hissadorlar kompaniyani boshkarishda ishtirok etmasliklari mumkin, shunga muvofik yollangan menejerlar shtatini saqlash uchun to'lovlarni amalga oshirish zarurati tugiladi. Boshqaruv lavozimlariga tayinlash va undan bo'shatish hissadorlar tomonidan qoidaga ko'ra ularning vakillari bo'lmish Direktorlar kengashi tarafidan amalga oshiriladi. Tashkilot rahbari Direktorlar kengashi strategiyasini ijroga kabul qilishi shart xamda hissadorlar kutayotgan eng yuqori daromadga erishish maqsadi uchun kurashishga majbur. Katta daromadlar yirik korxonalarda ikki sababga ko'ra muhim rol o'ynaydi. Birinchidan, katta daromad tashkilot samaraliligi taassurotini qoldirib, boshqaruv imijining qo'llab-quvvatlanishiga zamin yaratadi. Ikkinchidan, hissadorlar, odatda, sarflangan kapitaldan yuqori darajada foyda kelishini xoxlashadi. Foyda hissadorlar o'rtasida dividend sifatida taqsimlanadi. Hissadorlar kompaniya samarali bo'lganda va yillik kafolatlangan daromad kelib turgandagina manfaatdor bo'lishlari mumkin.

Shunday qilib, islomiy bank o'z tuzilish maksadiga ko'ra din, axloqiy qirralar va foyda ko'rishga e'tibor qaratadigan biznes o'rtasidagi mutanosiblikni aniqlashi va birlashtirib turishi kerak. Agar islomiy bank tizimida faqat axloqiy jihatning o'zi mavjud bo'lsa, u holda bank yo'qotishlarga duch keladi va o'z faoliyatini tugatishga majbur bo'ladi. Agar bu holat yuzaga kelsa, nafaqat omonatchilar, balki barcha musulmonlarga qiyin bo'lib qoladi. Aksincha, bank uchun faqat foyda olish muhim bo'lsa, unda tenglik va adolatga tayangan islomiy konsepsiya asoslariga putur yetadi. Jamiyat bundan keyin islomiy va an'anaviy banklar o'rtasidagi tafovutni anglamay qoladi. Bundan tashqari ularning an'anaviy banklarga nisbatan moyilligi ortib qoladi, chunki ularning fikricha, an'anaviy banklar ko'proq barqaror va samarali bank xizmati ko'rsatayotganday tuyuladi. Faxim Xon (1993) barcha bank bitimlari darajasidagi faoliyatda islomiy tamoyillarni ishlab chiqish, rivojlantirish va ragbatlantirishni joriy etish islomiy bank oldida turgan eng muhim vazifa

ekanini aniqlab berdi. Bank faoliyatini islomiylashtirishga yordam berishdan tashqari islomiy banklar boshqa, masalan, Islom tamoyillari asosida faoliyat yurituvchi investitsion kompaniyalarni tashkil etish va kengaytirish uchun ham mas'uldirlar. Islomiy moliya muassasalari nafaqat foyda olishni maqsad sifatida ko'radi, balki axloqiy-ijtimoiy omillarni ham hisobga oladi. Masalan, Benk Islam Maleyja Berxad (Bank Islam Malaysia Berhad) Malayziya banki faoliyatini yo'lga qo'yish jarayonida bir qancha asosiy tamoyillarni ishlab chiqdi (Bank Islam Malaysia, 1985): "Mazkur baiktshg korporativ maqsadi mamlakatdagi barcha etiik guruhlarga va mamlakat fuqarolariga shariat tamoyillariga, qoidalariga va amaliyotiga asoslangan bank mahsulonchari va xizmatlarini tasdim etshidan iboratdir.

Yuqorida takidlangan tamoyillar, qoidalar va amaliyotda "muomala" qilish meyorlari hisoblanadi va bank hamda moliya amaliyotlariga bevosita daxldordir. Bank faoliyatining bank mahsulotlari va xizmatlar ko'rsatish buyicha natijasi muassasaning yashovchanligi va uning o'sish potensialiga bevosita bog'liqdir". Maleyja Berxad o'z qarashlari va missiyasini islom bozori talablariga moslashish uchun yangiladi. Ularning yangi ish tamoyillari quyidagicha talqin etildi. Bank o'z qadriyatlari sifatida quyidagilarni ta'kidlaydi:

1. Turmush tarzi: Biz islomiy tamoyillar va qadriyatlarni qondiradigan hayotga ishonamiz.
2. Mijozlar: Biz o'z mijozlarimizni qadrlaymiz, ular ehtiyojini qondirish bosh maqsadimizdir. Bizning mijozlar — bizning eng Yaqin do'stlarimiz va eng qimmatbaho aktivlarimizdir.
3. Aniqlik va samaralilik: Biz mijozlarimiz uz vaktlarini qadrlashlarini tushunamiz va xizmatlarimizning aniq, samarali va tezkor bo'lnshiga erishamiz.
4. O'zaro bog'liklik; Biz mijozlarimiz xayrixohligiga intilamiz va o'zaro munosabatlarimizni mustahkamlash uchun ishlaymiz.

5. Innovatsiyalar; Biz mijozlar tajribasi borasida tafovut borligini tushunamiz, shuning uchun o‘z xizmatlarimizni takomillashtiramiz va yangicha yondashuvlarni joriy etamiz.

6. Jamoaviy hamkorlik; Bunday hamkorlik bizning majburiyatlarimiz ifodasida juda muhim. Biz kompaniya umumiy salohiyatiga ta’sir etadigan goya va fnkrlarni hurmat qilamiz va qadrlaymiz.

7. Ijtimoiylik Biz resurslarimizni ko‘paytirish va iqtisodiy o‘sishni ta’milagan holda jamiyatga faol yordam beramiz.

Yuqorida sanab o‘tilgan qadriyatlarga ko‘ra Dubay Islamik Benk xizmatlar sifati, ijtimoiy mas’ullik va renggabellik kabi jihatlarni o‘z ichiga olgan maqsad-vazifalarini bayon etadi:

- shariat tamoyillari va yuqori standartlarga muvofiq keluvchi bank xizmatlarni ko‘rsatish, kompyuter, axborot va telekommunikatsiya tizimidan foydalangan holda yangi texnologiyalarni joriy etishni takomillashtirish;

- bank va mijoz manfaati uchun faqat yuqori darajadagi daromadga emas, balki investitsiyalardan oqilona foydalanish orqali quyilmalarning optimal qaytarilishini ta’minalashga erishish;

- islomiy moliyalash tizimini boshqaruvchi me’yorlarni joriy etish maqsadida shariat tamoyillari asosida faoliyat yurituvchi boshqa moliya muassasalari bilan birgalikda ishlash va hamkorlik asosida faoliyatlarni muvofiqlashtirib turish;

- islomiy usullarni qo‘llash, shu jumladan, zakot orqali jamiyatda o‘zaro yordam, mehr-oqibat ko‘rsatish kabi insoniy tamoyillarni ommalashtirish;

- islomning besh kirrasiga kura jamiyatning gullab-yashnashi uchun ko‘maklashish;

- hayotni, aqlni, mulkni, sha’nni va ijtimoiy adolatni himoya kilish;

- shaxsiy ehtiyojga munosib moliyaviy va investitsion vositalardan foydalanib islomiy investitsiyalarga oqilona va ehtiyotkorlik bilan yondashishni rag‘batlantirish;

- shariatga muvofiq keluvchi iqtisodiy loyihalar va islomiy moliyalashtirish usullarini rivojlantirish maqsadida tadbirkorlar uchun dastlabki sarmoyalarni taqdim etish.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Кузнецова Т. Исламский банкинг: особенности кредитования инвестиционных проектов // Финансовая жизнь. – 2015. – № 2. – с. 22-25.
2. Исхаков И.Р. Операционная структура исламского финансового института, ориентированная на реализацию долевых методов // Актуальные проблемы экономики и права. – 2014. – № 2(30). – с. 12-16.
3. Арчакова-Ужахова М.Б. Исламские финансовые инструменты как альтернативный способ привлечения инвестиций // Глобальные рынки и финансовый инжиниринг. – 2017. – Том 4. – № 2. – С. 133-146.
jamoalari, maktablar va universitetlar o‘rtasida mavjud. Bundan tashqari, „oilalilar, siyosatchilar, siyosiy partiyalar, etnik guruhlar, mamlakatlar va shtatlarning mintaqaviy bo‘limlari har xil uzunlikdagi va intensivlikdagi doimiy raqobatda ishtirok etadilar“. Raqobat turli tomonlar o‘rtasidagi marosimlar mahsulidan rivojlanadi. Ba’zi hollarda, raqobat „shunchalik kuchli bo‘ladiki, aktyorlar faqat o‘z harakatlari bilan raqiblariga zarar yetkazishi yoki foyda keltirishi haqida tashvishlanishadi”.

Kelib chiqishi va ma’nosi Fransiya va Germaniya o‘rtasidagi raqobat. Ikki millat davlati bor ekan; Bu yerda, Prussiya Gardes du Korpusining zabitlari urush qo‘zg‘atmoqchi bo‘lib, 1806-yilning kuzida Berlindagi Fransiya elchixonasi zinapoyasida qilichlarini kutarib turishgan

Raqobat odatda odamlar yoki guruhlar o‘rtasidagi raqobatni anglatadi, bu yerda har biri boshqasidan ko‘ra ko‘proq muvaffaqiyat qozonishga intiladi. Shu bilan bir qatorda fe’l (so‘z turkumi) shaklida qo‘llanilganda (Amerika ingliz tilida raqobatlashuvchi va raqobatlashuvchi, Britaniya ingliz tilida raqobatlashuvchi va raqobatlashuvchi) tenglik munosabatini ko‘rsatishi mumkin.

Raqib so‘zini kelib chiqishi o’rta fransuz va lotincha rivalis, fransuzcha rivus so‘zlaridan kelib chiqqan bo‘lib, boshqasi bilan bir xil ariq va daryodan suv ichadigan yoki undan foydalanadigan odamni anglatadi

Bu so‘z ingliz tiliga taxminan 1577-yilda kirib kelgan va Uilyam Shekspirning 1623-yilda yozilgan “Veronadagi ikki janob” kitobida aytib o‘tilgan.

Jeyms Mark Bolduin 1902-yilda o‘zining "Falsafa va psixologiya lug‘ati" da raqobatning uchta asosiy turini aniqlagan.

1. biologik raqobat
2. shaxsiy yoki ongli raqobat
3. savdo va sanoatda raqobat

Shu bilan bir qatorda, Kilduff va uning hamkasblari 2010-yilda o‘zlarining sharhlarida raqobatni uch turga (individual, guruh va tashkilot) ga bo‘lgan va raqobatni „sub’ektiv raqobat munosabatlari“ sifatida ajratib ko‘rsatishgan, bu albatta „psixologik ishtirokning kuchayishi va sezilarli ulushlar“ ni talab qiladi. Ko‘proq zamonaviy tadqiqotlar raqobatni o‘rnatish uchun zarur bo‘lgan o‘xhashlik, yaqinlik va tarixni aniqlaydi, boshqalari esa shafqatsizlik bilan raqib munosabatlarini mustahkamlash uchun raqobat tarixiga bo‘lgan ehtiyojni kamaytirishi mumkinligini taxmin qilishdi.

### **Monopoliyaning iqtisodiy asoslari**

“Monopoliya” atamasining kelib chiqishi bozorga oid tushunchalardan (ya‘ni, grekcha “monos” – yagona, bitta, va “poleo” - sotaman) tarkib topadi, biroq uning iqtisodiy asoslari aslida ishlab chiqarishga borib taqoladi. Monopoliya – монопол юқори нархларни о‘рнатиш hamda monopol юқори foyda olish maqsadida tarmoqlar, bozorlar va yaxlit makroiqtisodiyot ustidan hukmronlikni amalga oshiruvchi yirik korxonalar (firma, korporatsiyalar)ning birlashmalari bo‘lib, monopolialarning vujudga kelishining moddiy asosi ishlab chiqarishning to’planishi hisoblanadi.

Ishlab chiqarishning to’planishi ishlab chiqarish vositalari, ishchi kuchi hamda mahsulot ishlab chiqarish hajmining yirik korxonalarda to’planishini namoyon etadi. Asosiy sabab – olinayotgan foyda hajmining ko’payishi hisoblanadi, foydaning (qo’shimcha mahsulot) bir qismi kapitallashtirib boriladi.

Kapitalning to’planishi – bu qo’shimcha qiymatning bir qismini jamg’arish (kapitallashtirish) natijasida kapital hajmining oshishidir. Ya‘ni, korxonadagi ishchilar soni, korxonaning ishlab chiqarish quvvati, qayta ishlanayotgan xom ashyo miqdori, tovar aylanmasi hajmi, foyda hajmi.

Monopoliyalarning turlari quyidagilardan iborat:

1. Bozorni qamrab olish darajasiga ko’ra:
  - a) soj monopoliya;
  - b) oligopoliya;

v) monopoliya.

Sof monopoliya – tarmoqdagi yagona ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchining narx va ishlab chiqarish hajmini belgilashdagi yakka hukmronlik holati hisoblanadi. Masalan, O’zbekistonda sof monopoliyalar sifatida “O’zbekiston havo yo’llari” DAK, “O’zbekiston temir yo’llari” DAK, toshkent aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasi shular jumlasidandir.

Tabiiy monopoliya – korxonaning texnologik xususiyatlari sababli mahsulotga bo’lgan talbni qondirish raqobat mavjud bo’lmagan sharoitda samaradorlik amalga oshiruvchi tovar bozorining holatidir. Bunda ishlab chiqarish hajmi ko’payadi, tovar birligiga to’g’ri keluvchi xo’jalik xarajatlari kamayib boradi. Legal (qonuniy) monopoliya – bu qonuniy tarzda tashkil etiluvchi monopolistik holatdan iborat. Ular tarkibiga himoya qiluvchi qo’yidagi monopoliya shakllarini kiritish mumkin:

- 1) Patent tizimi – bu ixtirochi yoki mualliflar tomonidan yaratilgan ixtiolar, foydali modellar, sanoat namunalarini tasdiqlovchi maxsus guvohnomalar – patentlar orqali amalga oshiriladi.
- 2) Mualliflik huquqi – ilmiy, badiiy va san’at asarlari, ijro san’ati fonogrammalari, ko’rsatuvlar, efir to’lqini yoki kabel orqali tasvir uzatish kabilari yaratish va ulardan foydalanish munosabatlarini qonuniy tarzda tartibga solish shakli.
- 3) Tovar belgilari – bu savdo belgilari, nishonlari, maxsus ramzlari nomi va haqozo.

Sun’iy monopoliya – monopol foyda olish maqsadida tashkil etiluvchi birlashmalarining shartli nomi. Sun’iy monopoliyalar kartel, sindikat, trest, konsortsium, kontsern kabi aniq shakllarda namoyon bo’ladi. Kartel – bitta sanoat tarmoqdagi bir necha korxonalarning uyushmasi bo’lib, uning ishtirokchilari ishlab chiqarish vositalari va mahsulotlariga o’z mulkiy egaligini saqlab qoladi, yaratilgan mahsulotlarni sotish esa kvota, ya’ni maxsulot ishlab chiqarish umumiyligi har bir ishtirokchining ulushi, sotish narxlari,

bozorlarning bo'lib olinishi va h.q. bo'yicha kelishuv asosida amalga oshiriladi. Sindikat – bir turdag'i mahsulot ishlab chiqaruvchi bir necha korxonalarining birlashmasi. Bunda ishlab chiqarish vositalariga mulkchilik birlashma ishtirokchilarning o'zida saqlanib qolgan holda, ular tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot tashkil etilgan yagona sotish tashkiloti orqali amalga oshiriladi. Trest – ishlab chiqarish vositalari va tayyor mahsulotga birgalikdagi mulkiy egalikni ta'minlovchi ishlab chiqaruvchilarning yuridik shaxs ko'rinishdagi birlashmasi. Konsortsium – tadbirkorlarning yirik moliyaviy operatsiyalarini birgalikda amalga oshirish maqsadida birlashuvi (masalan, yirik miqyosi loyihalarga juda katta miqdorda va uzoq muddatli kredit berish yoki investitsiyalar qo'yish). Kontsern – rasmiy jihatdan mustaqil bo'lgan, ko'p tarmoqli korxonalar (sanoat, savdo, transport va bank turli soha korxonalar)ning majmuisi o'z ichiga oluvchi birlashma. Monopoliyaning iqtisodiy taraqqiyotga ta'sir qiluvchi ijobiy va salbiy tomoni mavjud. Uning ijobiy tomoni asosan quyidagi ikkita jihat orqali namoyon bo'ladi:

1. Monopoliya ma'lum tarmoqlarda nisbatan samarali amal qiladi va xarajatlarning tejalishiga olib keladi.

2. Monopolist bo'lмаган, mayda, raqobatlashuvchi soha korxonalarda nisabtan monopolistik korxonalarda ishlab chiqarishga ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlarini joriy etish uchun ko'proq rag'bat va imkoniyat mavjud bo'ladi. Monopoliyaning salbiy tomoni sifatida qo'yidagi jihatlarni ko'rsatish mumkin:

- 1) resurslarning oqilona taqsimlanmasligi;
- 2) daromadlardagi tengsizlikning kuchayishi;
- 3) iqtisodiy turg'unlik va fan-texnika taraqqiyotining sekinlashuvi;
- 4) iqtisodiyotda demokratik harakatlarning to'sib qo'yilishi.

Bugungi kunda deyarli barcha mamlakatlar iqtisodiyotida monopoliyalarni davlat tomonidan tartibga solish chora-tadbirlari qo'llanilib, bu monopoliyaga qarshi siyosat deb ataladi. Davlatning monopoliyaga qarshi siyosati asosini monopoliyaga qarshi qonunchilik tashkil etadi.

## Foydalaniman adabiyotlar

1. Mukhammadov, M., O'runbayeva, Y. P., et al. (2018). Economics Theory Textbook. Tashkent: "FAN VA TEXNOLOGIYA", 272 pages.
2. Speech of President Shavkat Mirziyoyev at the Expanded Meeting of the Republic's Spiritual and Enlightenment Council. "We Need New Strength, New Movement in Spirituality" People's Word, December 23, 2023, No. 274(8617), page 3.
3. O'runbayeva, Y. P. (2013). Service Provision Sector and the Level of Population Welfare: Interrelation and Development Trends. Monograph. Tashkent: "FAN", 156 pages.
4. Bekmurodov, A. A. "Kichik biznes sub'ektlarini tijorat banklar tomonidan kreditlashda xorij tajribasi." Теория и практика современной науки 6 (96) (2023): 20-24
5. Bekmurodov, A. A. "Banklarni trasformatiya qilish sharoitida masofadan xizmat ko'rsatish tizimini ommalashtirish." Экономика и социум 6-1 (109) (2023): 83-86.
6. Sharipova N. D., Jurayev I. S. Theoretical foundations of monetary policy// international journal of innovations in engineering research and technology. – 2023. -T. 10. -C. 171-173.
7. Tursunov Faridun Mustafayevich. (2023). Opportunities for remote banking services to grow in republic of uzbekistan's commercial banks. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(11), 4–7.
8. <https://worldlyjournals.com/index.php/IJSR/article/download/1302/174>
9. <https://e-itt.uz/index.php/eitt/article/view/742>

## TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN YASHIL LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISH AMALIYOTINI RIVOJLANTIRISH

Sh.Abduvahobov-o‘qituvchi  
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti  
[shaxzodabduvahobov@mail.ru](mailto:shaxzodabduvahobov@mail.ru)

**Annotasiya:** Ushbu maqolada Tijorat banklari yashil loyihalarni moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar shuningdek, takomillashtirishning tashkil etilgan doimiy va tizimli jarayonlar orqali sodda foydalanish, texnik va jismoniy infratuzilma, shaxsiy ma'lumotlar muhofazasi va xavfsizlikni ta'minlash, shuningdek, xalqaro standartlarga mos xizmat ko'rsatish, moddiy resurslarni samarali foydalanish va boshqa ko'rsatkichlarni hisobga olishi Bu, loyihalarni moliyalashtirishni kuchaytirish va isloh qilishning boshqa turli usullari orqali amalga oshirish haqida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Qo‘shma moliyalash mexanizmi, tijorat banklari, “yashil platform”, “yashil” loyiha

**Annotation:** In this article, the work carried out to improve the practice of financing green projects by commercial banks, as well as the continuous and systematic processes of improvement through simple use, technical and physical infrastructure, personal data protection and security, as well as providing service according to international standards showing, efficient use of material resources and taking into account other indicators.

**Key words:** Joint financing mechanism, commercial banks, “green platform”, green” project.

Tijorat banklari yashil loyihalarni moliyalashtirishda muhim bir rol o‘ynaydi. Ular ommaviy pul mablag’larini yashil investitsiyalarga yo’naltirish orqali ekologik innovatsiyalarni rag’batlantirish va moliyalashtirishni oshirishga yordam berishadi. Marokashda Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YETTB) Boshqaruvchilari Kengashining 2022 yilga mo’ljallangan an’naviy yillik yig’ilishi bo’lib o’tgan. Uning doirasida YETTB a’zo-mamlakatlarining

ishbilarmon doiralari uchun xalqaro biznes-forum tashkil этилди. Ўифилиш “Joriy notinch dunyoda tahdidlarga javob choralari” mavzusiga bag’ishlanib, YETTBga a’zo-mamlakatlar vakillariga iqtisodiy o’sishni qo’llab-quvvatlash, iqlim o’zgarishlariga qarshi kurashish, YETTB investitsiya kiritayotgan mintaqalarda biznes muhitni yaxshilash kabi global masalalarni muhokama qilish uchun qulay imkoniyat туғдирди. Тадбир davomida YETTBning 2021-yildagi eng yaxshi hamkor banklarini taqdirlash marosimi ham bo’lib o’tdi. Unda O’zsanoatqurilishbank ikkinchi marotaba “Yashil moliyalashtirish yo’nalishidagi eng yaxshi loyiha” (Deal of the Year – Green Trade) nominatsiyasi bo’yicha taqdirlandi. Ushbu mukofot davlatimiz rahbari tomonidan tasdiqlangan 2019-2030 yillarda O’zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o’tish strategiyasiga muvofiq yashil investitsiyalarni jalb qilishga bank tizimi vakillarini qiziqtirish bo’yicha amalga oshirilayotgan ishlarning xalqaro moliya hamjamiyati tomonidan e’tirof etilishi hisoblanadi. Mazkur strategiyada belgilangan ustuvor vazifalarga to’liq muvofiq ish yuritish maqsadida muassasa tomonidan Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK) bilan hamkorlikda olib borilgan transformatsiya jarayonida Markaziy Osiyo mintaqasida yashil moliyalashni rivojlantirish imkoniyatiga ega ilk Bank sifatida tashabbus olg’a surildi. Xususan, bank tizimida “Green banking” departamenti faoliyati yo’lga qo’yildi. XMK ekspertlari bilan hamkorlikda “Ekologik va ijtimoiy xavflarni boshqarish tizimini rivojlantirish bo’yicha chora-tadbirlar rejası” ishlab chiqilib, uni amalga oshirish mexanizmi tasdiqlandi. Ekspertlar tavsiyalariga ko’ra, Bank yashil loyihalarni baholash uchun CAFI dasturidan foydalana boshladi. Umumiyligi hisobda dastur yordamida 121 ta loyiha moliyalashtirildi. Bundan tashqari, O’zsanoatqurilishbank Jahon banki, YETTB hamda Yevropa investitsiya banki bilan qayta tiklanuvchi energiya manbalari bo’yicha energiya samaradorligiga oid dastur hamda loyihalar doirasida ham yaqindan hamkorlik qilib keladi. Ushbu yo’nalishda YETTB Bankka Markaziy Osiyodagi ilk “Yashil bank”ni ta’sis etish borasida ko’maklashib kelmoqda.

2021 yilda “GEFF – Green Economy Financing Facility” dasturi doirasida 25 mln. dollar hajmidagi kredit liniyasi ajratildi.Umuman, O’zsanoatqurilishbank tomonidan yashil iqtisodiyotni qo’llab-quvvatlash, yashil loyihalarni moliyalashtirish borasida amalga oshirilayotgan faol ishlar nafaqat hukumatimiz, balki jahon hamjamiyati tomonidan alohida e’tirof etilmoqda.“Astana” moliya markazining Yashil moliya markazi tomonidan har yili an’naviy tarzda o’tkaziladigan “Green Finance Awards” mukofoti sovrindorlarini aniqlash marosimida Bank “2021 yilning eng yaxshi yashil investitsiyaviy banki” nominatsiyasi bo'yicha rag'batlantirilgani bunga misol bo’la oladi.

“Ipak Yo’li” bankiga 6 million AQSH dollarining so‘mdagi ekvivalenti miqdorida birinchi navbatdagi kredit ajratish. Mazkur kredit mablag‘lari O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish mexanizmi (GEFF O‘zbekiston) doirasida ajratiladi. Ushbu kredit mablag‘lari texnik va moliyaviy muvofiqlik mezonlari asosida tegishli kichik loyihalarni amalga oshirishni ko‘zlagan maqbul sub-qarz oluvchilarga beriladi. Muvofiqlik mezonlariga ko‘ra, sub-qarz oluvchilar investitsion imtiyozlarga ega bo‘ladilar.Bu kredit mablag‘lari milliy valyutada har biri 2 million AQSH dollaridan iborat ikkita teng transhda taqdim etiladi. Kreditning 1-transhi kredit shartnomasi imzolangandan keyin to’lanadi; 2-transhi esa, to’lanmay turadi va faqat YTTBning xulosasiga ko‘ra taqdim etishi mumkin. Har bir transhning qaytarilish muddati uch yil bo’lib, u tegishli to’lov paytida yoki o’sha muddatga yaqin sanadagi ayirboshlash kursi bo'yicha AQSH dollarining so‘mdagi ekvivalenti miqdorida to’lab boriladi. Banklar quyidagi usullar orqali yashil loyihalarni moliyalashtirishga yordam berishlari mumkin:Moliyaviy Ko’rsatkichlar: Banklar yashil loyihalarni moliyalashtirishning moliyaviy ko’rsatkichlarini ko’zdan kechirish orqali ularni qo’llab-quvvatlashadi. Bu, loyihalarni moliyalashtirishga investitsiya qilishni oshiradi.

**Investitsiya:** Banklar ekologik ravishda foydali loyihalarga investitsiya qilish uchun investitsiya portfeli tashkil etishadi. Bu, moliyalashtirishni rag'batlantirish va boshqa tijorat agentligi uchun moliyalashtirishning ko'rsatkichlarini oshiradi.

**Kreditlar va Moliyaviy Ko'rsatkichlar:** Banklar yashil innovatsiyalarni o'zgartirish uchun tadbirlarni qo'llab-quvvatlash uchun innovatsion tadbirlarga kreditlarni berishadi va moliyaviy ko'rsatkichlar ko'rsatishadi.

**Konsultatsiya va Maslahatlashish:** Banklar loyihalar uchun moliyalashtirishning eng muhim masalalarida konsultatsiya va maslahat berishadi, shuningdek, loyihalarni moliyalashtirishga yordam berishadi. Banklar o'z moliyaviy maqsadlarini qo'llab-quvvatlash va ekologik ravishda foydali loyihalarni moliyalashtirish orqali jamiyatning ekologik va ijtimoiy foydasini oshirishda muhim bir rol o'yndaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Раджаббай Дусмуратов “Яшил иқтисодиёт”га инвестицияларнинг даромадлилигини асослаш 109.
2. К.К.Шаакрамов “Яшил” иқтисодиёт миллий иқтисодиётни баркарор ривожланишини мухим омили 112.
3. Умарова Азизахон Илхамбабаевна – “ЗЕЛЁНЫЕ” Инвестиции и перспективы их использования в Республике Узбекистан.
4. Bekmurodov, A. A. “Tijorat banklari faoliyatini raqamlashtirish va informatsion texnologiyalarni rivojlantirish istiqbollari.” Экономика и социум 6-1 (109) (2023): 87-89.
5. Sharipova N. D., Aliboyev L.Sh. The importance of anti-inflationary policy and inflation trading in uzbekistan// international multidisciplinary journal for research & development. -2023. -T. 10. -C. 92-94.
6. Tursunov Faridun Mustafoyevich. (2023). Opportunities for remote banking services to grow in republic of uzbekistan's commercial banks. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(11), 4–7.

## **Virtual Reality Integration in Education: Enhancing Teacher Professional Development**

**Rustamov Jamshid Ergashevich,**

Samarkand Institute of Economics and Service

**Abstract:** This study explores the integration of virtual reality into the educational process with the aim of developing effective teaching methods to enhance the professional skills of educators. In modern education, virtual reality represents a powerful tool for creating interactive and multidimensional learning environments. The authors examine various aspects of integrating virtual reality into the teaching process, including the development of virtual simulations, educational games, trainings, and lectures. Drawing on the analysis of existing research and practical experience, innovative approaches to improving teaching methodologies through electronic systems using virtual reality are proposed. The findings of this research are significant for the advancement of modern education and the enhancement of the quality of teacher training.

**Keywords:** virtual reality, educational process, teaching methods, professional skills of educators, technology integration.

### **INTRODUCTION**

#### **Description of the relevance of the topic**

In today's information society, where technologies continue to evolve at an impressive pace, the integration of innovations into the educational process becomes a necessity. One of the most promising technologies actively penetrating the education sphere is virtual reality (VR). Virtual reality offers unique opportunities to create interactive and multidimensional learning environments that can significantly enrich the learning process and enhance its effectiveness.

The theme of integrating virtual reality into the educational process is becoming increasingly relevant in light of the rapid development of digital technologies and their influence on shaping educational practices. In the context of education, virtual reality provides unique opportunities to create immersive

learning scenarios, allowing students to immerse themselves in virtual environments and interact with the content of educational materials in a new, deeper format.

However, to fully harness the potential of virtual reality in education, it is necessary to develop appropriate teaching methods and instructional materials that take into account the specific features of this technology and contribute to achieving educational goals. This is particularly relevant in the context of enhancing the professional skills of educators, who play a key role in the successful integration of virtual reality into the educational process.

In this study, we focus on the development of effective teaching methods using virtual reality to enhance the professional competencies of educators. Examining this topic represents an important step towards innovative development in education and the formation of a modern educational practice that fosters better preparation of students for the challenges of the modern world.

## LITERATURE REVIEW

### **Definition of basic concepts and terms**

The integration of virtual reality (VR) into the educational process involves utilizing modern technologies to create immersive learning environments where students can interact with virtual objects and scenarios. This expands the possibilities of learning beyond traditional classroom settings and facilitates the development of more effective and interactive teaching methods.

Professional skills of educators encompass a complex set of knowledge, abilities, and competencies required for effective organization and implementation of the educational process. In the context of VR integration in education, educators' professional skills also include the ability to utilize VR technology for creating educational materials, assessing student progress, and adapting teaching methods to meet students' needs.

Key terms in the context of VR integration into the educational process include:

1. Immersive Learning Environment: An educational environment created using VR that enables students to immerse themselves in virtual scenarios and interact with the content of educational materials in three-dimensional space.
2. Virtual Educational Applications: Software developed for the use of virtual reality in education, providing students access to interactive educational materials, simulations, and educational games.
3. Virtual Reality Technologies: Hardware and software components necessary for creating and utilizing virtual environments for educational purposes. This includes VR headsets, controllers, sensors, and corresponding software.
4. Virtual Reality Teaching Methods: Strategies and approaches to organizing the educational process using virtual reality. These methods may include virtual lectures, simulations, training sessions, and projects.

Understanding and utilizing these key concepts is crucial for developing effective teaching methods using virtual reality and enhancing the professional skills of educators in this field.

## RESEARCH METHODOLOGY

Description of data collection methods (observation, surveys, document analysis, etc.)

### **Research methodology:**

The aim of our research is to develop effective teaching methods using virtual reality to enhance the professional skills of educators. To achieve this goal, we employ a combination of qualitative and quantitative data collection methods.

#### **1. Observation:**

We will observe the process of teaching using virtual reality in real educational settings. This will enable us to study how educators interact with

VR technology during classes, which strategies and methods they employ, and identify any issues or difficulties they encounter.

## **2. Surveys:**

We will conduct surveys with educators who work with virtual reality in education. The surveys will cover aspects such as their experience using VR in the teaching process, their perception of the effectiveness of this technology, and their needs for additional training or support.

## **3. Document Analysis:**

We will analyze scholarly articles, educational materials, guidelines, and other documents related to the integration of virtual reality into the educational process. This will allow us to familiarize ourselves with existing teaching methods using VR, their effectiveness, and identify best practices and suggestions for improving the educational process.

## **Experimental Studies:**

We also plan to conduct experimental studies, including a comparative analysis of the effectiveness of different teaching methods using virtual reality. This will enable us to assess which methods are most effective for enhancing the professional skills of educators.

By combining various data collection methods, we aim to gain a comprehensive understanding of the current state and potential of integrating virtual reality into the educational process, as well as develop recommendations for the development and improvement of this area.

Innovative approaches to the improvement of teaching methodology through electronic system

## **Interactive technologies and their application in education**

Innovative Approaches to Enhancing Teaching Methodology through Electronic Systems:

The integration of virtual reality (VR) into the educational process represents one of the most promising and innovative approaches to improving

teaching methodology. Virtual reality offers unique opportunities to create interactive and immersive learning environments that can significantly enhance the effectiveness of the educational process. To integrate VR into the educational system and enhance teaching methodology through electronic systems, a range of innovative approaches can be utilized:

1. Development of Interactive Educational Content: Creating interactive educational materials using VR, such as virtual lectures, simulations, training scenarios, and educational games, allowing educators and students to interact with the learning material in a three-dimensional environment.
2. Establishment of Virtual Laboratories and Training Simulators: Designing virtual environments that enable students to conduct experiments and training in a safe and controlled setting. This is particularly useful for educating students in fields requiring work with hazardous or expensive equipment.
3. Utilization of Virtual Reality for Distance Learning: Establishing virtual learning environments that enable students to receive education remotely, without leaving their homes. This will expand access to education and provide flexibility in the learning process.
4. Interactive Assessment Methods: Implementing interactive assessment methods for evaluating students' knowledge and skills using VR. This may include creating virtual tests, simulations, or scenarios where students need to apply their knowledge in practice.
5. Training Educators in VR Usage: Conducting specialized courses and training sessions for educators on using VR in educational practice. This will enable teachers to master new technologies and develop effective teaching methodologies using VR.

Utilizing these innovative approaches can significantly improve the quality of education, enhance the professional skills of educators, and make learning more engaging, captivating, and accessible for students.

## DEVELOPMENT AND IMPLEMENTATION OF INNOVATIVE TEACHING METHODS

### Description of the developed methods

Development and Implementation of Innovative Teaching Methods:

1. Virtual Lesson Simulations: Creating specialized virtual simulations that model real classroom situations, allowing educators to practice various teaching methodologies. These simulations may include virtual classrooms with students, virtual lessons, and scenarios for interacting with pupils.
2. Interactive Educational Games: Developing gaming applications using VR that enable educators to teach students various subjects and skills through interactive and engaging tasks. These games can be adapted for different age groups and subject areas.
3. Virtual Trainings and Simulators for Professional Development: Designing virtual trainings and simulators that allow educators to practice their classroom management skills, lesson delivery, and interaction with students. These trainings can be beneficial for both novice and experienced educators.
4. Utilizing Virtual Reality for Interdisciplinary Projects: Organizing interdisciplinary projects involving VR, where students can collaborate and solve complex tasks in a virtual environment. This will stimulate creative thinking, communication, and teamwork among students.
5. Interactive Virtual Lectures and Seminars: Creating interactive virtual lectures and seminars where educators can interact with students in real-time, ask questions, conduct discussions, and demonstrate educational material.

These developed teaching methodologies represent innovative approaches to integrating virtual reality into the educational process, which can significantly enhance the effectiveness of teaching and the development of educators' professional skills. Their implementation will create a more interactive, engaging, and adaptive educational environment, conducive to successful learning and student development.

## CONCLUSION

### **Summary of the main findings of the study**

The integration of virtual reality into the educational process represents a modern and innovative direction with the potential to significantly enhance the effectiveness of teaching and the development of educators' professional skills. Throughout our research, we have examined various aspects of this process and developed a range of effective teaching methodologies that can be successfully implemented in educational practices.

A summary of the key findings of the research includes the following points:

1. Potential of Virtual Reality: The research confirms that virtual reality provides unique opportunities to create immersive learning environments that can substantially improve students' acquisition of knowledge and skills.
2. Development of Effective Teaching Methods: We have developed a series of innovative teaching methodologies, including virtual simulations, interactive games, virtual trainings, and interdisciplinary projects, which have the potential to significantly enhance the quality of education.
3. Enhancement of Educators' Professional Skills: Our research demonstrates that training educators in the use of virtual reality and developing their competencies in this field are key aspects of successfully integrating this technology into the educational process.
4. Need for Further Research: Despite significant achievements, further research in the field of virtual reality integration in education is necessary to continue improving teaching methods and optimizing learning outcomes.

In conclusion, our research confirms that the integration of virtual reality into the educational process has tremendous potential to improve education and develop educators' professional skills. This is an important step towards creating a modern and innovative educational environment that meets the needs of

contemporary society and ensures successful learning and development for all participants in the educational process.

### List of references

1. J.E. Rustamov Methods of Teaching, Methodology And Teaching Technologies in The Development of The Skills of Today's Economists in The Electronic Information, International Journal of Scientific Research And Education. Volume||07||Issue||03||March-2019||Pages-8114-8118||ISSN(e):2321-7545 Website: <http://jsae.in>
2. Sh.Sh. Rajaboev USE OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN THE ACCOUNTING OF ENTERPRISES // Теория и практика современной науки. 2023. №10 (100). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/use-of-information-and-communication-technologies-in-the-accounting-of-enterprises> (дата обращения: 25.02.2024).
3. A. E. Ernazarov, Specific features of training. International Journal on Integrated Education, 3(5), 30-34.
4. Brusilovsky, P. (2001). Adaptive Hypermedia. User Modeling and User-Adapted Interaction, 11(1-2), 87–110. DOI: 10.1023/A:1011111830404
5. Dabbagh, N., & Kitsantas, A. (2012). Personal Learning Environments, social media, and self-regulated learning: A natural formula for connecting formal and informal learning. Internet and Higher Education, 15(1), 3–8. DOI: 10.1016/j.iheduc.2011.06.002
6. Bekmurodov, A. "THE IMPACT OF TRANSFORMATION PROCESSES ON THE ACTIVITIES OF COMMERCIAL BANKS." *Archive of Conferences*. 2021.
7. Amriddinovich, Bekmurodov Abbos. "Features of api services in the implementation of transformational processes in the activities of commercial banks." *World Economics and Finance Bulletin* 7 (2022): 27-31.

## TIJORAT BANKLARINING IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI VA UNING AHAMIYATI

**Abduvahobov Shaxzod Xolmo'min o'g'li**

Samarqand Iqtisodiyot va Servis Instituti

“Bank ishi” kafedrasi assistenti

**Annatotatsiya:** Ushbu maqola barcha mamlakatlar uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan tijorat banklarining Iqtisodiyotdagi ahamiyati, o'rni hamda banklar bajaradigan operatsiyalar va funksiyalar shuningdek bank xizmatlarini ko'rsatish orqali aholi qolidagi bo'sh pul mablag'larini o'ziga jalg qilib ularni korxonalar va xo'jalik subyektlari o'rtasidakrewdit tamoyillari asosida qayta taqsimlab, ishlab chiqarish va iqtisodiyotga ta'sir qilishi haqida qisqacha keltirilgan va tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Iqtisodiyot, tijorat banklari, xo'jalik subyektlari, bank operatsiyalari, bank xizmatlari, jalg qilingan mablag, bozor munosabatlari, bo'sh pul mablag'lari, qayta taqsimlash, ishlab chiqarish jarayoni, xalqaro bank amaliyoti.

Barchamizga ma'lumki, har bir davlatning jahon hamjamiyatida tutgan o'rni va nufuzi bevosita uning iqtisodiy va siyosiy kuchiga bog'liqdir. Mamlakat taraqqiyoti, uning rivojlanishi, butun dunyoda o'z so'zi va o'z qarashlariga ega bo'lishi ham aynan shu davlatning ham iqtisodiy, ham ma'naviy kuchiga chambarchas bog'liqdir. Mamlakat iqtisodiyotining asosiy bo'g'inini esa uning bank va moliya tizimi tashkil etadi. Banklarning mohiyati va funksiyalari, shuningdek, bajaradigan operatsiyalari va ko'rsatadigan xizmatlari ularning iqtisodiyotdagi rolini belgilab beradi. Banklarning iqtisodiyotdagi roli deganda asosiy e'tiborni ularning vujudga kelish omillari, rivojlanish jarayonlari va bajaradigan operatsiyalariga qaratish lozim. Binobarin, banklarning iqtisodiyotda tutgan roli ham ularning funksiyalari kabi ma'lum darajadagi xususiyatlarga egadir. Banklar mulkiy jihatdan qanday shaklda tashkil topgan bo'lishidan qa'tiy nazar, iqtisodiyotda umum ahamiyatga ega bo'lgan, muhim operatsiyalarni bajaradi. Shu boisdan ham, banklar qanday mulkiy shaklda yoki

ixtisoslikda tashkil topgan bo'lishidan qa'tiy nazar, ular iqtisodiyotda alohida va yetakchi ahamiyat kasb etadi. Albatta, banklarning iqtisodiyotdagi ahamiyati juda ko'pqirrali bo'lib, ularning asosiyilari quyidagilardan iborat:

1. Jamiyatdagi vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larni tegishli shartlar asosida o'ziga jalb etadi;
2. Qo'shimcha moliyaviy mablag'larga ehtiyoji mavjud xo'jalik yurituvchi subyektlar va aholiga qaytarishlik, to'lovlik, muddatlilik va ta'minlanganlik asosida mablag'lar beradi;
3. Milliy valyutaning emissiyasini tashkil etadi va uning barqarorligini ta'minlash doirasida pul –kredit siyosatini amalga oshiradi;
4. Pul aylanmasini tashkil etadi va uning tartibini belgilaydi;
5. Iqtisodiy munosabatlarga kirishuvchi sub'ektlar o'rtaida hisob –kitob va to'lovlnarni amalga oshirishda vositchilik qiladi;
6. Bozor ishtirokchilariga turli darajadagi komission va maslahat xizmatlarini amalga oshiradi;
7. Aholiga va mijozlarga trast va depozitar xizmatlarini taklif etadi.
8. Banklarning iqtisodiyotdagi rolining asosiy jihatlaridan biri, jamiyatdagi vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larini jamg'arish asosida ularni iqtisodiyotning tegishli tarmoqlariga qayta taqsimlashda namoyon bo'ladi.

Barchamizga a'yonki, jamiyatda faoliyat yurituvchi xo'jalik subyektlarining asosiy maqsadi albatta, jamiyatdan iqtisodiy foyda olishga qaratilgan. Shu bilan birga, ishlab chiqarish jarayoni turli tarmoqda turlicha bo'lganligi bois, ma'lum davrda ayrim xo'jalik yurituvchi subyektlarda ishlab chiqarish jarayonini rivojlantirish uchun qo'shimcha moliyaviy mablag'larga ehtiyoj tug'ilsa, ayrimlarida aksincha. Iqtisodiyot tarmoqlarida ishlab chiqarish siklining turli –tumanligi (qishloq xo'jaligi, qayta ishlovchi korxonalar, qurilish sanoati va boshqalar) sababli, moliyaviy mablag'lar vaqtinchalik ishlab chiqarish jarayonidan chetlashtiriladi. Bu jarayonda bir tomonidan bir guruh iqtisodiyot tarmoqlarida qo'shimcha moliyaviy mablag'larga nisbatan

qo'shimcha ehtiyojni keltirib chiqarsa, ikkinchitomondan iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida mablag'larning ishlab chiqarishdan chetlashishini keltirib chiqaradi.

Ana shunday jarayonda ikki tomonning iqtisodiy manfaatlarini birlashtiruvchi moliyaviy tashkilot sifatida banklar maydonga chiqadi. Birinchi guruh iqtisodiyot tarmoqlarining vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larini tegishli shartlar asosida jalg etib, ushbu mablag'larga ehtiyoji bo'lgan ikkinchi guruh iqtisodiyot tarmoqlariga, ya'ni qo'shimcha moliyaviy resurslarga ehtiyoj sezgan xo'jalik subyektlariga qayta taqsimlab beradi.

Ko'rinish turibdiki, ushbu munosabatlarni bankdan boshqa birorta moliyaviy tashkilot samarali va tez hal eta olmaydi. Banklarning ushbu o'ziga xos jihatni iqtisodiyotdagi rolini belgilaydi.

Banklarning iqtisodiyotda bajaradigan yana bir o'ziga xos xususiyatlaridan biri, bu ularning xo'jalik yurituvchi subyektlar, aholi va davlat tashkilotlari o'rtasida amalga oshiriladigan hisob –kitoblarni tashkil etishi va ularning ustidan tegishli nazorat ishlarini amalga oshirish hisoblanadi. Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik subyektlari o'rtasida har kuni bir necha yuz minglab pul o'tkazmalari amalga oshiriladi. Bularning barchasi banklar tomonidan amalga oshiriladi va tartibga solib turiladi. Shu sababli ham banklar iqtisodiyotimizning yetakchi va asosiy bo'g'ini hisoblanadi.

O'z navbatida, banklarning iqtisodiyotdagi rolini yuqori yoki pastligiga qator omillar ta'sir qiladi. Masalan: Aholi va mijozlarning banklarga bo'lgan ishonchining mustahkamligi. Xalqaro bank amaliyoti va mustaqillikdan keyin bosib o'tilgan qisqa davrda yig'ilgan tajribalarning natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, bozor iqtisodiyotining asosiy o'zagi asosan o'zaro ishonch va halollikka tayanadi. Agar mazkur holatni aholi va mijozlarning banklarga bo'lgan ishonchi yo'qolishi bilan bog'lab ko'radigan bo'lsak, banklarga nisbatan ishonch yo'qolishi oqibatida ularning jamiyatdagi rolini pasayishiga olib keladi.

Bu esa nafaqattijorat banklarining faoliyatiga balki iqtisodiyotdaularning tutgan o'rnining pasayishiga ham olib kelishni mumkin.

Binobarin, mamlakatda qonun ustuvorligini ta'minlash va bozor mexanizmlari samaradorligini oshirish orqali nafaqat davlat iqtisodiyotini balki , uning ichki va tashqi siyosatini ham barqarorlashtirish mumkin . Tijorat banklarining xo'jalik subyektlariga kreditlarni berishda, mijozlarning naqd pullarga bo'lgan talabini qondirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bularning barchasi banklarning iqtisodiyotdagi rolini yanada oshirish lozimligidan dalolat beradi.

Masalan, banklarning asosiy faoliyat turlaridan biri muomalaga pulni emissiya qilishini oladigan bo'lsak, muomalaga emissiya qilingan pul massasi tovar massasi bilan ta'minlangan bo'lishi lozim. Aks holda, milliy valyutaning inflyatsiya darajasi oshishi bilan birga, uning sotib olish qobiliyati pasayib ketadi. Demak, muomalaga emissiya qilingan pullar tegishli tovar massasi bilan ta'minlangan bo'lishi lozim.

Umuman olganda O'zbekiston bank-moliya tizimida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar iqtisodiyotimizning barqaror o'sishini ta'minlab, yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishish, ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni izchil rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etayapti.

Hozirgi kunda banklar oldiga qo'yilgan eng dolzarb mavzulardan biri hisoblangan "Banklarning treansformatsiyalashuvi" jarayoni ham mamlakat ichida tijorat banklarining qanday tarzda rivojlanishini hamda iqtisodiyotga ta'sirini belgilab beradi. Bu jarayonda asosiy o'rtaqa qo'yilgan maqsad banklarda davlat ulushini kamaytirish , ya'ni davlat tomonidan ulushi bo'limgan va ralashuvi bo'limgan banklar sonini oshirish hisoblanadi . Oxirgi statistik ma'lumotlarga qaraganda davlat ulushi mavjud banklarlarning kredit ulushi jami tijorat bank kreditlarining 71 % ini , depozit ulushi esa 51.6 % ini tashkil etadi

bu esa juda katta ko'rsatkich hisoblanib , tijorat banklarining rivojlanish darajasiga hamda mustaqilligiga katta ta'sir qiladi .

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda bank-moliya tizimini shakllantirishda shu jumladan, tijorat banklarining investitsion jozibadorligini oshirish masalalari, shuningdek, hukumat tomonidan mamlakat bank sektorini modernizatsiya qilish bo'yicha qabul qilingan bir qator oqilona qarorlar o'z taqbig'ini topmog'i lozim. Ana shundagina, banklar tijorat samaradorligini oshirish o'rta va uzoq muddatli strategiyani shakllantirish mumkin.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

**1.** М. В. Романовский, Н. Г. Иванова. Финансы [Электронный ресурс]: учебник для академического бакалавриата / ред.. . 5-е изд. перераб. и доп. Москва: Юрайт, 2016. –Режим доступа <http://www.biblioonline.ru>

**2.** Чалдаева Л. А. Килячков А. А.. Рынок ценных бумаг [Электронный ресурс] : учебник для академического бакалавриата /–5-е изд., перераб. и доп. –Москва :Юрайт, 2016. –Режим доступа <http://www.biblio-online.ru>

**3.** Avduvahabov is the son of Shahzod Kholmumin Analysis of Existing Management Mechanisms and Assessment Methods of The Bank's General Financial Risk, Journal of Intellectual Property and Human Rights, Volume:02 Issue: 05/ May-2023, ISSN:2720-6882 (227-231)

**4.** Avduvahabov is the son of Shahzod Kholmumin Improvement of Investment Activities in the Service Sector, Journal of Innovative Studies of Engineering Science (JISES), Volume:02 Issue:03/2023 (53-58)

**5.** Sharipova N. D., Asadova S. D. The role of banks in the modern monetary system //Procedia of Theoretical and Applied Sciences. – 2023. – Т. 6. – С. 55-62.

**6.** Bekmurodov, A. A. "Banklarni trasformatсиya qilish sharoitida masofadan xizmat ko'rsatish tizimini ommalashtirish." Экономика и социум 6-1 (109) (2023): 83-86.

**7.** Tursunov, F. M. (2023). Tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish muammolari va ularni bartaraf etish ahamiyati. scholar, 1(30), 75–81.

**8.** <http://www.cerr.uz/uz/news/news/transformacia-bankovskogo-sektora-strategiceskie-vyzovy-dla-uzbekistana>

## Ijtimoiy iqtisodiy tizimlar va ularning modellari.

**O'rungbayeva Yulduz Pirnazarovna** .f.f.dok., dotsent

**Abdusattorov Shaxriyor O'tkir o'g'li**

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Ijtimoiy iqtisodiy tizimlar va ularning modellari haqida so'z yuritilgan.

**Annotation:** This article talks about social economic systems and their models.

**Kalit so'zlar:** Talab va taklif, Talab va taklif bozor muvozanati, Talab, Taklif, Narx, Talab va taklif orasidagi mexanizmlar.

**Key words:** Demand and supply, Demand and supply market equilibrium, Demand, Supply, Price, Mechanisms between supply and demand.

**Talab va taklif** — bozor iqtisodiyotining fundamental tushunchalari. Talab (tovarlar va xizmatlarga talab) — xaridor, iste'molchining bozorda muayyan tovarlarni, ne'matlarni sotib olish istagi; bozorga chiqqan va pul imkoniyatlari bilan ta'minlangan ehtiyojlari. Ehtiyoj pul va narx vositasida talabga aylanadi. Rasman olganda talab iste'mol kattaligi miqdoridir. Tovarlar dunyosidagi xilmillikka moye ravishda talab hosil bo'ladi. Masalan, oziqovqat tovarlari, sanoat mollari, maishiy va ijtimoiy xizmatlarga bo'lgan talablar tovarlarga talab tuzilmasini tashkil etadi. Mazmuni va harakati jihatidan haqiqiy, o'sayotgan, barqaror qondirilgan, qondirilishi kechiktirilgan, qondirilmagan, me'yordagi va boshqa talablarga bo'linadi. Har bir iste'molchining, ya'ni alohida shaxs, oila, korxona, firmanın biror tovar to'plamiga yoki tovarlarga bildirilgan talablari yakka talab deyiladi. Muayyan tovarga yoki tovarlar to'plamiga barcha xaridorlar bildirgan talab yig'indisi bozor talabi, barcha bozorlarda barcha tovarlarga jamiyat miqiyosida bildirilgan ijtimoiy talab yalpi talab deyiladi. Talab miqdorining o'zgarishiga bir qancha omillar ta'sir qiladi. Ularning o'rasida eng muximi narx omilidir. Tovar narxining pasayishi sotib olinadigan tovar miqdorining o'sishi va aksincha, narxning o'sishi xarid miqdorining

kamayishiga olib keladi. Taklif — muayyan vaqtda va muayyan narxlar bilan bozorga chiqarilgan va chiqarilishi mumkin bo‘lgan tovarlar va xizmatlar miqdori bilan ifoda etiladi; taklif ishlab chiqaruvchi (sotuvchi)larning o‘z tovarlarini sotishga (bozorga) taklif etish istagi. Bozorda tovar narxi bilan uning taklifi miqdori o‘rtasqda bevosita bog‘liqlik mavjud: narx qanchalik yuqori bo‘lsa, boshqa sharoitlar o‘zgarmagan hollarda, sotish uchun shuncha ko‘proq tovar taklif etiladi, yoki aksincha, narx pasayishi bilan taklif hajmi qisqaradi. Masalan, 10 so‘m narxda 3 tovar birligi taklif etiladi, agar narx 15 so‘mga ko‘tarilsa, taklif hajmi 5 birlikka qadar ko‘payadi, agar narx 20 so‘mga yetsa, taklif hajmi 6 birlikka yetadi. Shunday qilib, taklif miqdorining o‘zgarishlari taklif egri chizig‘ida bir nuqtadan ikkinchisiga ko‘chishida o‘z ifodasini topadi. Egri chiziqning ijobiy og‘ishi tovar narxi bilan uning taklifi miqdori o‘rtasidagi bevosita bog‘liqdikni aks ettiradi.

Tovar taklifiga, tovarning o‘z narxidan tashqari bir qator omillar: shu tovari ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan resurslar narxlari; qo‘llaniladigan texnologiya; soliqlar va dotatsiyalar; taqchillik yoki narxlar o‘zgarishlarini kutish; bozordagi sotuvchilar soni va boshqa ta’sir ko‘rsatadi. Mas., resurelarning arzonlashuvi muayyan tovari ishlab chikarish xarajatlarini kamaytiradi, bu esa uning taklifi o‘sishini stimullaydi. Taklifning o‘ziga ta’sir ko‘rsatadigan omillar o‘zgarishlariga, birinchi navbatda, narx o‘zgarishlariga sezgirligi taklif elastikligi deb ataladi.

Talab va taklifning tub mazmuni ularning narx orqali o‘zaro aloqadorlikda mavjud bo‘lishidir. Bu aloqadorlik — talab va taklif qonuni bozor iqtisodiyotining ob’yektiv qonuni hisoblanadi. Talab va taklif qonuniga ko‘ra bozordagi taklif va talab faqat miqdoran emas, balki o‘zining tarkibi jihatidan ham bir-biriga moye kelishi kerak, shundagina bozor muvozanatiga erishiladi. Bu qonun ayirboshlash qonuni bo‘lib, bozorni boshqaruvchi va tartiblovchi kuch darajasiga ko‘tariladi. Unga ko‘ra bozordagi talab o‘zgarishlari darhol ishlab chiqarishga yetkazilishi kerak. Bozordagi Talab va taklif nisbatiga qarab ishlab

1. Buxgalteriya hisobi va operatsiyalarni qayta ishlash tizimlari - bu tizimlar pul o'tkazmalari, to'lovlar, depozitlar va kreditlar kabi barcha moliyaviy operatsiyalarni qayta ishlash uchun javobgardir. Ular operatsiyalarni aniq hisobga olish, moliyaviy operatsiyalarni nazorat qilish va bank jarayonlarini qo'llab-quvvatlashni ta'minlaydi.

2. Mijoz ma'lumotlarini boshqarish tizimlari - bu tizimlar bank mijozlari, ularning hisoblari, operatsiyalari va boshqa muhim ma'lumotlar to'g'risidagi ma'lumotlarni saqlash va boshqarishni ta'minlaydi. Ular, shuningdek, mijozlarning moliyaviy faoliyati uchun risklarni boshqarish va monitoring tizimlarini o'z ichiga olishi mumkin.

3. Xavfsizlik va axborotni himoya qilish tizimlari - bunday tizimlar bank ma'lumotlarini ruxsatsiz kirish, kiberhujumlar va boshqa xavfsizlik tahdidlaridan himoya qiladi. Ular autentifikatsiya, ma'lumotlarni shifrlash, tranzaksiya monitoringi va boshqa xavfsizlik choralarini o'z ichiga oladi.

4. Risklarni boshqarish tizimlari - bu tizimlar banklarga kredit riski, operatsion risk, bozor riski va boshqalar kabi turli xil risklarni baholash va boshqarishda yordam beradi. Ular banklarga ongli qarorlar qabul qilishda va risklarni minimallashtirishda yordam beradi.

5. Jarayonlarni boshqarish tizimlari - bu tizimlar ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish, kreditlar berish, moliyaviy portfellarni boshqarish va boshqalar kabi bank jarayonlarini avtomatlashtiradi va optimallashtiradi. Ular xarajatlarni kamaytirishga, samaradorlikni oshirishga va mijozlar tajribasini yaxshilashga yordam beradi.

Umuman olganda, bank sektoridagi axborot tizimlari banklarning samarali faoliyat yuritishini ta'minlashda, ularga bozorda raqobatdosh ustunlikni ta'minlashda muhim o'rinn tutadi.

Shunday qilib, axborot tizimlari bank sohasida samarali va xavfsiz faoliyat ko'rsatishini ta'minlash, mijozlarga xizmat ko'rsatishni yaxshilash va

moliyaviy operatsiyalar riskini kamaytirishda muhim o‘rin tutadi. Bu ularni zamonaviy bank tizimining ajralmas qismiga aylantiradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ernazarov, A. E. (2024). Zamonaviy Axborot Tizimlarining Tuzilishi Va Qo ‘Llanilishi. *Journal of Integrity in Ecosystems and Environment*, 2(3), 1-5.
2. Ernazarov, A. E. (2024). Classification of information systems by fields of application. *iqtisodiyot va zamonaviy texnologiya jurnali/journal of economy and modern technology*, 3(3), 11-16.
3. Ergashevich, E. A., & Dilshodbek, B. (2023). Bank Sohasida Axborot Texnologiyasining Qo'llanishi. *Journal of Innovation in Education and Social Research*, 1(4), 147-149.
4. Ergashevich, E. A., & Nilufar, A. (2024). Ma'lumotlarni tarmoqli qayta ishslash texnologiyalari. *Miasto Przyszlosci*, 44, 170-173.
5. Ergashevich, E. A., & Go‘zal, S. (2023). Iqtisodiy axborot tizimlarining iqtisodiyotda tutgan o’rni. *Journal of Innovation in Education and Social Research*, 1(4), 247-249.
6. Ergashevich, E. A., & Zufar o’g’li, A. M. (2024). Zamonaviy Axborot Texnologiyalari Infratuzilmasining Tarkibiyqismlari. *Journal of Innovation in Education and Social Research*, 2(1), 154-157.
7. Ergashevich, E. A., & Zufar o’g’li, A. M. (2023). Elektron To’lov Tizimlarining Iqtisodiyotda Tutgan O’rni. *Journal of Innovation in Education and Social Research*, 1(4), 113-116.

## Bank tizimi faoliyatini transformatsiyalashda nazariy yondashuvlar evolyusiyasi

**Bekmurodov Abbos Amiriddinovich**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bank faoliyati ko‘lamining kengligi transformatsiyalash jarayonlarining alohida yo‘nalishlarini aniqlab olishda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolar o’gsanib chiqilgan va bu muammolarni hal qilish uchun ba’zi mulohazalar olib borilgan.

**Kalit so’zlar:** mahsulot, xizmat, tovar, bank mahsuloti, bank xizmati, tovar – pul, bank operatsiyalari.

**Abstract:** In this article, the problems that may arise in determining the specific directions of the transformation processes of the scope of banking activities have been identified, and some considerations have been made to solve these problems.

**Keywords:** product, service, commodity, banking product, banking service, commodity - money, banking operations.

Bank faoliyati ko‘lamining kengligi transformatsiyalash jarayonlarining alohida yo‘nalishlarini aniqlab olishni taqazo etadi. Raqobat kurashi kundankunga kechayib borayotgan bank faoliyati yo‘nalishi chakana moliyaviy xizmatlar bozori hisoblanadi. Aynan shu yo‘nalish, fikrimizcha, transformatsion jarayonlarning iqtisodiy mohiyati to‘laqonli namoyon bo‘layotgan soha hisoblanadi.

Avvalambor, bank xizmatlari tushunchasining nazariy asoslariga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz. Juhon bank ishi fanida ushbu masalaga tegishli umum qabul qilingan yondashuvning shakllanmaganligi muayyan muamolarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun fikrimcha, ushbu masala yuzasidan mualliflik yondashuvini ishlab chiqilishi kelgusida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan savollarga javob topish imkoniyatini yaratadi.

E’tirof etish lozimki, bank faoliyatining iqtisodiy mohiyati “mahsulot”, “xizmat”, “tovar” tushunchalari bilan chambarchas bog‘liq. Bank faoliyatida

yuzaga kelayotgan muammolarni nazariy jihatdan tadqiq etishda ushbu tushunchalar odatda, nomaqbul tarzda qo'llaniladi; ularning ba'zilari umumlashtirilib yuboriladi. Umuman olganda, bunday holat nafaqat bizning sharoitimizga, balki umujahon bank faoliyati nazariyasi va amaliyatiga xos bo'lgan jihat hisoblanadi. Ko'rsatilgan tushunchalar ham nazariy ham amaliy jihatdan bank faoliyatining assosini tashkil etadi.

Mahsulot – bu tabiiy, hayvonot, o'simlik olami hamda ijtimoiy (insoniy) kuchlar faoliyatining sintezlashtirilgan natijasidir. Umuman olganda, mahsulot (tushunchaning keng ma'nosida) tabiiy va ijtimoiy kuchlarning nimadadir predmetlashtirilgan yoki predmetlashtirilmagan natijalaridir. Tabiat, inson faoliyatining mahsulotlari so'zning tor ma'nosida tegishli tabiiy va ijtimoiy mahsulotlarni anglatadi. Demak, moddiy qimmatlik buyumlarda predmetlashtirilsa, ular moddiy ko'rinish oladi. Aksincha, predmetlashtirilmasa xizmat deb nomланади.

Bank faoliyati nazariyasi va amaliyotida asosan bank mahsuloti, bank operatsiyasi va bank xizmati tushunchalaridan keng foydalaniladi. Ammo ularning negizada tovar tushunchasi yotadi. Tovar mohiyatan tarixan yuzaga kelgan moddiy qimmatliklarning mahsulot va xizmatlar ko'rinishidagi iqtisodiy shakli hisoblanadi.

Bundan kelib chiqqan holda tovar birinchidan, inson uchun foydali bo'lgan (ya'ni, iste'mol qiymatiga ega bo'lgan) ikkinchidan, boshqa mahsulotlar, xizmatlar yoki pulga ayrboshlanish imkoniyati mavjud (yoki qiymatga ega) mahsulot yoki xizmatdir. Demak, biz tovarni iste'mol qiymati va qiymatga ega bo'lgan mahsulot yoki xizmat deb tasniflashimiz mumkin.

Biz turli tushunchalar turli ma'noda ishlatalishi oqibatida (bank mahsuloti va xizmatlari, iste'molchilar bilan tuzilayotgan shartnomalarning mohiyatini ochib berishda) ulardan foydalanish imkoniyatining sun'iy ravishda murakkablashtirilishi masalalariga hozircha batafsil to'xtalib o'tmaymiz.

Biz asosiy e'tiborimizni bank ishida "bank mahsuloti", "bank xizmati", "tovar" tushunchalarining qo'llanilishi masalasiga qaratamiz. Ularni imkon qadar batafsil ko'rib chiqishga harakat qilamiz.

Mazkur tushunchalar nazariy ishlannmalar va amaliy bank faoliyatida (tovar – pul munosabatlarining rivojlanishi nuqtai-nazaridan) unchalik to'g'ri qo'llanilmasligiga guvoh bo'lmoqdamiz. Adabiyotlarda "Bank xizmati" va "bank mahsuloti" tushunchalarini bir ma'noli tushuncha sifatida qarash holatlari uchraydi. Xususan, "mahsulotlarni doimiy takomillashtirish konsepsiagasi asoslanish, bank taklif etayotgan asosiy xizmatlar sifatini oshirishga yo'naltirilishiga olib keladi". Bu fikrni I. Spitsin va Ya. Spitsinlar bildirishgan. Shuningdek, ular ushbu tushunchalar o'rtasida farq mavjudligini ta'kidlab o'tishgan: "Garchi bank ishlab chiqarishni takomillashtirish konsepsiyasiga asoslansa, u o'z mahsulotlarining keng tarqalishi hamda xizmatlarining arzonligini ta'minlash uchun xarajatlarni kamaytirishga harakat qiladi.

"Bank tovari degan tushuncha iqtisodiy adabiyotlarda yo'q va qo'llanilmaydi, lekin mohiyatan ko'rib chiqilganda bank o'z operatsiyalarini oddiy mahsulot va xizmatlar ko'rinishida olib bormaydi. Haqiqatda, bank ularni tovar shaklida ishlab chiqaradi va sotadi. Bu tegishli isbotlarsiz nazariya va amaliyot tomonidan tovar – pul tizimi instrumentlari (bozor, talab, taklif, baho, qiymat, ishlab chiqarish xarajatlari, bank daromadlari, foyda, zararlar va x.k.) orqali to'liq tan olinadi.

bank xizmatiga tegishli bo'lgan asosiy o'ziga xos (moddiy qimmatlardan ajratib turuvchi) xususiyatlarni ko'rib chiqamiz.

Birinchi navbatda, e'tibor qartilishi lozim bo'lgan xususiyat bank xizmatining xaridori nimani sotib olayotganligini (hatto sotib olgandan so'ng ham) anglashi juda qiyinligi hisoblanadi. Mijoz bankka ishonishga majbur va unda bankka ishonch elementi bo'lishi shart. Shu paytning o'zida bank xizmatining "ko'rinasligi" bank xodimi faoliyatini murakkablashtirib yuboradi. Ushbu holatda ikkita muammo yuzaga keladi:

- mijozlarga bank tomonidan o‘z “tovar”ini ko‘rsatish deyarli mumkin emas;
- mijozlarga nima uchun pul to‘lashayotganliklarini batafsil tushuntirish imkoni mavjud emas.

Bunday vaziyatda mijoz bank xizmatini sotib olish bilan qanday manfaat ko‘rshini tessavuur qilishi mumkin xolos.

Bank xizmatining o‘ziga xos ikkinchi xususiyati shundan iboratki, uni oldindan ishlab chiqarish va saqlab qo‘yishning imkoniyati yo‘q. U faqat talabning paydo bo‘lishi bilan ishlab chiqarilishi mumkin; bu ikki jarayon bir-biridan ajratilishi mumkin emas. Bundan tashqari, mijoz unga taklif qilinayotgan va ko‘rsatilayotgan xizmatning sifatini shu paytda baholay olmaydi.

Bank xizmatining o‘ziga xos xususiyatlaridan yana biri – vaqt bo‘yicha chegaralanganligidadir. Odatda, xizmatlar kelgusida sotilishi yoki ko‘rsatilishi uchun saqlab qo‘yilishi mumkin emas. Garchi xizmatlarga bo‘lgan talab taklifga nisbatan yuqori bo‘lsa, unga xuddi sanoat korxonalaridek, omborxonadagi tovarlarni muomalaga chiqarish ko‘rinishida «javob» berib bo‘lmaydi.

Bank mahsuloti – mijozga xizmat ko‘rsatish hamda operatsiyalarni amalga oshirish uchun bank tomonidan ishlab chiqilgan va muomalaga kiritilgan bank hujjati (yoki guvohnomasi) hisoblanadi. Ular jumlasiga, plastik katochkalar, veksel, chek, turli sertifikatlar (investitsion, depozit, jamg‘arma) va boshqalarni kiritish mumkin.

Bank xizmatlarini ko‘rsatish puldan turli shakllarda (naqd, naqd pulsiz va hisob-kitoblar) foydalanilishini nazarda tutadi. Nomoddiy xususiyatga ega bo‘lgan bank xizmatlari mulkiy shartnomaviy munosabatlar orqali “ko‘zga” ko‘rina boshlaydi. Aksariyat bank xizmatlarida davomiylilik xususiyati mavjud.

“Bank xizmati”, “bank mahsuloti”, “bank operatsiyasi” tushunchalari tadqiqot qilishning dolzarbliji neoklassik firma (korxona) nazariyasining moliyaviy vositachilar, xususan banklarga nisbatan ishlatila boshlanishi bilan izohlanadi.

Bankni korxonaga tenglashtirish (firma nazariyasiga binoan) faoliyat predmetini belgilab olinishini talab qiladi, ya’ni “bank operatsiyasi”, “bank xizmati” va “bank mahsuloti” tushunchalariga aniq ta’rif berilishi zarur. Bugungi kungacha bu tushunchalar hamda mijoz talablarini yakuniy holatda Nima qanoatlantiradi operatsiyami, xizmatmi yoki mahsulotmi degan savol yuzasidan iqtisodchilar yagona yondashuv va bir to‘xtamga kelishmagan. Ushbu tushunchalarning mohiyatini ta’riflashda 4 ta asosiy yondashuv mavjud.

1. Pulga asoslangan yondashuv (Lavrushin O.I., Выкова Н.И., Golovin Yu.V.).

Bu yondashuv bank faoliyatini tasniflovchi bosh jihat puldir degan g‘oyaga asoslanadi: pul – resurs bo‘lib, u ob’ektiv iqtisodiy qonuniyatlar talabidan kelib chiqqan holda banklar tomonidan shakllantiriladi.

Fikrimizcha, mazkur yondashuvga xos bo‘lgan asosiy kamchiliklar quyidagilardan iborat:

birinchidan, bank xizmatlari va operatsiyalari tushunchalari o‘rtasida aniq (sezilarli) farq mavjud emas;

ikkinchidan, “bank mahsuloti” tarkibiga bank faoliyatining qimmatliklarni saqlash, informatsion xizmat ko‘rsatish va boshqa turlari kiritilmagan;

uchinchidan, bank mahsulotining pul ko‘rinishida bo‘lmagan elementlari inobatga olinmagan (masalan, kreditni taqdim etishish faqat pul berish bilan chegaralanmaydi, bu jarayonning monitoringini amalga oshirish, baholash va kreditning qaytarilishi hamda maqsadli ishlatilishini nazorat qilish kabi tarkibiy qismlari mavjud).

2. Lingvistik (marketing) yondashuv (Utkin E.A., Guryanov S.A., Maksutov Yu.G., Alexin R.V., Ivanov A.N., Romanov A.V., Markova V.D.).

Ushbu yondashuv doirasida ikkita konsepsiya ko‘rib chiqilgan:

Birinchi konsepsiyaga ko‘ra, «bank mahsuloti» tushunchasi mavjud emas, chunki unga “bank product” so‘zining unchalik to‘g‘ri bo‘lmagan tarjimasi

sifatida qaralgan. Bank operatsiyasi biror bir harakat yoki bank xizmati elementi sifatida ko‘rib chiqilgan.

Ikkinchi konsepsiyaga binoan, “bank xizmati” va “bank mahsuloti” tushunchalari sinonimdir: bank mahsuloti – aktiv va passiv operatsiyalar bo‘yicha xizmatlar kompleksi; bank xizmati – mijozlar talabini qondiruvchi mahsulotdir.

3. “Huquqiy” yondashuv (bu yondashuvning asosiy qoidalari qonunchilik hujjatlari va huquqshunoslarning ishlarida o‘z aksini topgan).

Shu o‘rinda alohida qayd etish zarurki, mamlakatimiz bank qonunchiligidagi “bank mahsuloti” tushunchasi ko‘rib chiqilmagan, shuningdek, “bank xizmati” va “bank operatsiyalari” tushunchalariga ham to‘liq ta’rif berilmagan. O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunida “bank xizmatlari” tushunchasi batafsil yoritilmagan, bank faoliyatining o‘ziga xos xususiyati bank operatsiyalari va bitimlari asosida aniqlangan, bunda “bitim” va “operatsiya” ma’nodosh tushunchalar sifatida ko‘rib chiqilgan. Bunday holat oqibatida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki bank faoliyatini litsenziyalash paytida litsenziyada bank operatsiyalari ro‘yxatini ko‘rsatib o‘tadi, banklar esa o‘z faoliyatini olib borishda bank xizmatlarining reklamasini amalga oshirishadi va xizmatlarini mijozlarga “o‘tkazishga” intilishadi.

4. “Mijoz”ga nisbatan yondashuv (Korobov Yu.I., Maslenchenkov Yu.S., Mireskiy A.P.).

Bu yondashuv doirasida asosiy e’tibor mijozga qaratiladi. Bank operatsiyasi mijozlar talabini qondirish (xizmat ko‘rsatish) uchun bank xodimlari tomonidan amalga oshiriladigan hatti-harakatlar majmui tariqasida tasniflanadi. Bunda bank xizmatiga bank operatsiyasini bajarishdan olingan natija sifatida qaraladi.

Yuqorida yondashuvlarni o‘rganish va tahlil qilish bilan quyidagi umumiy xulosaga kelish mumkin.

Turli konsepsiya vakillari turli fikrlarni bildirishlariga qaramasdan, ularning barchasi tashqi muhit(xususan, bozor)ning o‘zgaruvchanligi va beqarorligi sharoitida iqtisodiy munosabatlar ishtirokchilari faoliyatining samaradorligini oshirish, transaksion xarajatlarni kamaytirish, ular o‘rtasidagi informatsion assimetriyani minimallashtirishda banklarning salmoqli o‘rni mavjudligiga alohida e’tibor qaratishgan. Ammo, olimlar va mutaxassislar tomonidan bank ishini tashkil qilish masalalarini o‘rganishga qaratilgan jiddiy e’tiborga qaramasdan, respublikamizda chakana bank xizmatlari nazariyasi to‘liq o‘rganib chiqilmagan. So‘nggi yillarda chop etilgan ilmiy maqolalar va dissertatsiyalarning aksariyat qismida bank bozori va bank xizmatlarining alohida (umumlashtirilmagan) xususiyatlari tadqiq etilgan, ularda bank ishining ma’lum jihatlarigina tahlil qilingan.

Umuman olganda, mamlakatimiz olimlari va mutaxassislari o‘z ishlarida bank xizmatlarini bank operatsiyalarining bir turi sifatida ko‘rib chiqishgan. Xorijlik olimlarning aksariyat qismi esa, bank operatsiyalari bank xizmatlarining bir turi deb ta’kidlashadi.

Fikrimizcha, bank xizmatlari va bank operatsiyalarining iqtisodiy va nazariy mohiyati bir xildir, chunki bank xizmati – mijozning bank xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirishga va bank tomonidan ular uchun haq olishga yo‘naltirilgan operatsiya va bitimlaridir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.**

1. Котлер, Ф. Основы маркетинга : пер. с англ. /. - 2-е европ. изд. - М.: СПб.: Киев: Вильяме, 1999. 638 стр., К.Хаксевер, Б.Рендер, Р.Рассел, Р.Мердик. Управление и организация в сфере услуг. 2 –е изд. / пер. с анг. под ред. В.В.Кулибановой – СПб.; Питер, 2002.37 – 69 стр., В.И.Хабаров, Н.Ю.Попова. Банковский маркетинг./ Московская финансово – промышленная академия. М.: 2004. 15 – 18 стр.
2. Спицын И.О., Спицын Я.О. Маркетинг в банке – АО «Тарнекс» ЦММС «Писнейн»– 1993, 61 стр.

3. Спицын И.О., Спицын Я.О. Маркетинг в банке – АО «Тарнекс» ЦММС «Писнейн»– 1993, 97 стр.
4. В.И.Хабаров, Н.Ю.Попова. Банковский маркетинг./ Московская финансово – промышленная академия. М.: 2004. 15 стр.
5. В.И.Хабаров, Н.Ю.Попова. Банковский маркетинг./ Московская финансово – промышленная академия. М.: 2004. 16 стр.
6. Хабаров В.И., Попова Н.Ю. Банковский маркетинг./ Московская финансово – промышленная академия. М.: 2004. (20 -22 стр.).
7. Bekmurodov, A. A. "Tijorat banklari faoliyatida transformasiyalanish jarayonlarining asosiy yo'naliishlari." Форум молодых ученых 6 (82) (2023): 3-9.
8. Bekmurodov, A. A. "Banklarni trasformatiya qilish sharoitida masofadan xizmat ko'rsatish tizimini ommalashtirish." Экономика и социум 6-1 (109) (2023): 83-86.

## МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТНИНГ ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАРИГА ҮТИШ ЙЎЛЛАРИ

Қаюмова Зилола

Банк молия академиси магистранти.

**Аннотация:** Мақола молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига үтиш йўллари очиб берилган. Ривожланган мамлакатларнинг тажрибаларидан келиб чиқиб мамлакат иқтисодиётига молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларини қўллаш орқали инвестицион муҳитни яхшиланишига имкон яратилиши ва йўналишлари тадқиқ этилган. Маколада молиявий ҳисоботни такомиллаштиришда молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига (МХХС) үтиш ва уни жорий этиш барча мамлакатлар учун долзарб масала бўлиб тураётганлиги, жаҳондаги кўплаб мамлакатларда молиявий ҳисобот компиляцияси натижасида МХХСлари асосида молиявий ҳисобот тузишга ўтилаётганлиги ва мамлакатимизда молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига үтиш бўйича илмий ва амалий хуносалар шакллантирилган ҳамда молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига үтишга каратилган таклиф ва тавсиялар ишлаб чикилган.

**Таянч сўзлар:** бухгалтерия ҳисобининг миллий стандарти, молиявий ҳисобтнинг халқаро стандарти, компиляция, бухаглтерия баланси, молиявий натижалар, бухгалтерлар федерацияси.

**Abstract:** The article explains the transition to international financial reporting standards. The possibilities and directions for improving the investment climate in the country's economy through the application of international financial reporting standards based on the experience of developed countries are studied. The article explains the transition and implementation of International Financial Reporting Standards (IFRS) is a topical issue for all countries to improve financial reporting, the transition to the preparation of financial statements on the basis of IFRS as a result of compilation of financial statements in many countries around the world. The article draws scientific and

practical conclusions, as well as proposals and recommendations for the transition and implementation of International Financial Reporting Standards.

**Keywords:** national accounting standards, international financial reporting standards, compilation, balance sheet, financial results, federation of accountants.

**Кириш** Ҳозирги кунда бутун дунё мамлакатларида чуқурлашиб бораётган глобаллашув ва интеграллашув жарёнлари асосида халқаро стандартларга ўтиш бугунги куннинг асосий талабларидан бири бўлиб ҳисобланади. Ривожланган мамлакатларнинг тажрибаларидан келиб чиқиб мамлакат иқтисодиётига молиявий ҳисботнинг халқаро стандартларини қўллаш орқали инвестицион муҳитни яхшиланишига имкон яратилади.

Халқаро Бухгалтерлар Федерацииси (IFAC) директивасида таъкидланганидек: “Молиявий ҳисбот макро ва микродаражада давлат сиёсатини ёритади ҳамда узоқ муддат давомида давлат хизматлари ва иқтисодиётни барқарор ҳолга келтиришга ёрдам беради”<sup>3</sup>. Бугунги кунда молиявий ҳисботни такомиллаштиришда молиявий ҳисботнинг халқаро стандартларига (МХХС) ўтиш ва уни жорий этиш барча мамлакатлар учун долзарб масала бўлиб турибди. Жаҳондаги кўплаб мамлакатларда молиявий ҳисбот компиляцияси натижасида МХХСлари асосида молиявий ҳисбот тузишга ўтилмоқда.

### **Мавзунинг ўрганилганлик даражаси**

Молиявий ҳисботнинг халқаро стандартларига ўтиш йўлларининг айрим масалалари, назарий ва услубий масалалари хорижлик иқтисодчи олимлар А.Аренс [2]. Р.Адамс [3]. М.Бенис [4]. Р.Додж [5]. Д.Р.Кармайкл [6] Дж.Робертсон [7],, МДХ мамлакатларининг иқтисодчи-олимларидан А.В.Белавин [8]. С.М.Бычкова [9]. А.А.Терехов [10]. В.Т.Чая [11]. А.Д.Шеремет [12] ва бошқа олимлар томонидан ўрганилган.

<sup>3</sup> <https://www.ifac.org/publications-resources/accountability-now-brochure>

Кейинги йилларда мамлакатимиз олимлари томонидан молиявий ҳисоботни такомиллаштиришга бағишенгандын тадқиқотлар илмий мақолалар Р.Д.Дусмуратов [13]. А.К.Ибрагимов [14]. И.Н.Исманов [15]. А.А.Каримов, Д.К.Кудбиев, З.Т.Маматов, С.У.Мехмонов С.С.Насретдинов, А.А.Остонокулов, А.Х.Пардаев, М.Қ.Пардаев, К.Б.Уразов, Б.А.Хасанов [16]. ва бошқаларнинг изланишларида кўришимиз мумкин.

С.Н.Ташназаров [17]. томонидан олиб борилган тадқиқот ишларида молиявий ҳисоботнинг назарий ва методологик асослари такомиллаштирилган, хусусан МҲҲСлар талабларига жавоб берадиган ҳисоботларнинг янги такомиллашган шакллари ишлаб чиқилган.

### **Тадқиқот методологияси**

Тадқиқот методологияси молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш йўлларини такомиллаштириш ва амалиётга жорий этиш назарияси буйича мамлакатимиз хамда хорижий олимларнинг олиб борган илмий ишлари натижалари, шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Президентининг молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтишга оид фармон ва карорлари ташкил этади. Шу билан бирга, илғор хориж тажрибасига таянган холда, молиявий ҳисобот компиляцияси натижасида МҲҲСлари асосида молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш ва амалиётга қўллаш катта туртки бўлиши мумкин. Шу нуқтаи назардан ушбу тадқиқотнинг методологик жиҳати мамлакатимизда молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларидан фойдаланиш амалиётини ривожлантириш ғояларини амалиётга жорий этиш йўлларини асослашдан иборат. Мазкур мавзуни ёритишда тахлил, индукция, дедукция, тизимли ва комплексли ёндашув усусларидан фойдаланилди.

### **Таҳлил ва натижалар**

Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари- шу ном билан аталувчи Кўмита таркибига кирувчи давлатларга қўллаш учун тавсия қилинган қоидалар мажмуасидир.

Бу халқаро стандартнинг дунёга келиши молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари Қўмитаси (МХХСК) фаолияти билан бевосита боғлиқ. Бу халқаро ташкилот қатор етакчи давлатлар (Австралия, Канада, Франция, Германия, Япония, Мексика, Голландия, АҚШ, Буюк Британия ва Ирландия) бухгалтерларнинг профессионал бирлашмалари томонидан ўзаро келишув орқали тузилган.

Қўмитанинг функциясига қўйидаги мақсадлар киради:

- ✓ жамоатчиликнинг манфаатларини инобатга олиб, молиявий ҳисобот стандартларини шакиллантириш ва нашр этиш, ҳисботларни тайёрлаш ва тақдим этиш қоидаларни таъминлаш, оммавий қўлланилиши ва уларга риоя қилинишини рағбатлантириш;
- ✓ молиявий ҳисботларни тақдим этиш билан боғлиқ меъёрлар, ҳисоб стандартлари ва тартибларини такомиллаштириш ва мувофиқлаштириш бўйича иш юритиш.

Молиявий ҳисботнинг халқаро стандартлари (МХХС) биринчи навбатда молиявий капитални ҳисботларда акс эттиришга мўлжалланган бўлиб, уни биржалар, банклар ва кредит муассасаларида қўллашга мўлжалланган. Ўзбекистон Республикасида ҳисоб ва молиявий ҳисботни ислоҳ қилишнинг муҳим жиҳатларидан бири - хўжалик субъектлари ҳисоб тизимини МХХСга ўтказиш ҳисобланади. Албатта, бу дегани миллий ҳисоб тизимидан воз кечиб, халқаро ҳамжамиятчиликда қабул қилинган ҳисоб тизимиға буткул ўтишни назарда тутмайди, бундай халқаро ҳисоб тизимининг ўзи ҳам йўқ ва юқорида қайд қилинган бирор бир етакчи давлат миллий ҳисоб тизимида жорий қилинган эмас. Масала миллий молиявий ҳисботни халқаро молиявий ҳисбот моддалари (кўрсаткичлари) бўйича қайта тузиш тўғрисида кетмоқда.

Миллий ҳисботни халқаро ҳисбот стандартлари бўйича қайта тузиш, халқаро тажрибада икки йўл билан амалга оширилади, яъни

молиявий ҳисоботни трансформация қилиш ва конверсия усуллари.

Трансформация усули олдинги ҳисобот даври кўрсаткичларини халқаро стандартларга мослаб қайта тузатишни назарда тутади. Бунинг учун компания хўжалик муомалалари ва ҳодисаларини ҳисобда дастлаб миллий стандартлар бўйича акс эттиради, ундан сўнг молиявий ҳисобот кўрсаткичларини тузатиб, халқаро стандартларига мослаб ўзгартиради.

Конверсия, ёки паралел ҳисоб усули – бир пайтнинг ўзида ҳисоб маълумотларини икки молиявий ҳисобот тизимида шакиллантириши назарда тутади. Натижада молиявий ҳисобот миллий стандартлар шаклларида ва молиявий ҳисботнинг халқаро стандартлари шакилларида тузилади.

Ҳисобот даври учун халқаро стандартлар бўйича молиявий ҳисобот тузиш учун компания олдинги ҳисобот йилидан ўтган баланс моддалари бўйича активлар ва пассивлар қолдигини халқаро стандартлар кўрсаткичларига мослаб тузатишлар киритиши талаб қилинади. Бунда компания бошланғич қолдиқларни қайта ҳисоблашда қўллаган ҳисоб сиёсатига ҳисобот даврида ҳам риоя қилиши қатъий ҳисобланади.

Халқаро стандартларга ўтиш пайтида юзага келган фарқларни тақсимланмаган фойда (қопланмаган зарар) таркибида ҳисобга олиш халқаро амалиётда қабул қилинган. Бу фарқлар даромад ва харажатларни миллий ва халқаро стандартларда тан олиш мезонлари билан характерланади. Масалан, миллий стандартлармиз бўйича даромад ҳажми юклаб жўнатилган маҳсулот (иш, хизмат)ларнинг ҳажми билан аниқланади, халқаро стандартлар бўйича эса сотишдан тушган тушумлар ҳажми билан.

Натижада юзага келадиган фарқлар нафақат молиявий натижалар ҳажмига, шунингдек, даромад, сотилган маҳсулот таннархи ва фойда ҳисобига тўланадиган солиқлар ва мажбурий тўловларнинг ҳам ўзгаришига олиб келади. Бундай фарқлар бошқа омиллар таъсирида ҳам

юзага келиши мумкин. Бир сўз билан айтганда қайта ҳисобланган ва тузилган молиявий ҳисбот халқаро стандартларга нақадар мос келиши, тузатиш ёзувларини амалга оширган бухгалтерниг малакаси ва тажрибасига кўп жиҳатдан боғлиқ бўлади.

Фарқлар нафақат ҳисоблаш услубиётида юзага келган мезон ўзгаришлари ёки ҳисболовчи субъектнинг йўл қўйган хатоликлари таъсирида, шунингдек, бошқа омиллар таъсирида ҳам юзага келиши мумкин. Шунинг учун, бу соҳада ортирилган амалий тажриба кўнималари ва соҳа мутахасисларининг малакасидан фойдаланиб, компаниянинг ҳисоб сиёсатида миллий ҳисбот тизимидан халқаро тизимга ўтиш услубиётини атрофлича ёритиш мақсадга мувофиқ.

Молиявий ҳисботнинг бир тизимидан иккинчи бир тизимига ўтишда, тузатувчи ёзувлар таъсирида нафақат бухгалтерия баланси ва молиявий натижалар тўғрисидаги ҳисбот моддалари, шунингдек, пул оқимлари ва хусусий капитал тўғрисидаги ҳисботларнинг тегишли моддаларида ўзгаришлар юзага келади. Бунинг учун қуйидагиларни амалга ошириш зарур:

- ✓ ҳисоб тузиш кунига ишлаб чиқариш ва товар моддий заҳираларни инвентаризациядан ўтказиш. бу жараёнда, уларни соф қийматда сотиш эҳтимоли аниқланади, чунки заҳиралар сифати бузилганлиги, ёппасига ёки қисман эскирганлиги туфайли уларни сотиш қиймати пасайиб, таннархини ҳам қоплайолмайдиган даражага келиб қолган бўлиши мумкин;
- ✓ заҳираларни қайта баҳолаш. Агарда компания ҳисоб сиёсатида қўлланилган ишлаб чиқаришдаги заҳираларни баҳолаш усули халқаро стандартларда кўзда тутилган усуллардан фарқланса, бунда миллий ҳисоб тизимимизда либо усулининг қўлланилиши бекор қилинганлиги назарда тутилади;

- ✓ дебиторлик қарзларини ўзаро ҳисоблашишлар далолатномалари билан тасдиқлаш, бу қайтарилиши ишончсиз ва даргумон қарзларни ва уларни қоплаш резервини аниқлашга ёрдам беради;
- ✓ зарурат туғилса, қисқа муддатли молиявий қўйилмаларни таъминловчи резервга ажратмалар ҳисобини амалга ошириш ва ҳисобда (ҳисоботда) акс эттириш;
- ✓ асосий воситаларни инвентар саноқдан ўтказиш, бунда уларнинг маънавий ва жисмоний эскириши туфайли қийматидаги баҳолашдан йўқотишлиар аниқланади;
- ✓ асосий воситалар амортизациясини қайта ҳисоблаш, ҳисобдан чиқариш (ликвидация) қийматини аниқлаш, фойдали хизмат кўрсатиш муддатини қайта кўриб чиқиш, агарда зарур бўлса эскириш қийматини тузатувчи ёзувлар билан ўзгартириш;
- ✓ узоқ муддатли молиявий инвестицияларни ва инвестицион мулкни қайта баҳолаш, уларни баҳолаш бўйича зарур резервларни тузиш;
- ✓ узоқ муддатли молиявий ижарага берилган активлар бўйича кечикирилган даромадлар ҳисобининг тўғрилигини текшириш;
- ✓ активлар ва мажбуриятларни узоқ ва қисқа муддатлига ажратиш ва бошқа тузатишлиар.

Бухгалтерия ҳисобини ва ҳисботини халқаро стандартларга келтиришнинг барча компаниялар учун ягона мезони, ҳисоблаш жадваллари ва муддатлари бўлиши мумкин эмас. Ҳисоблаш жадваллари, молиявий ҳисбот элементларига қўлланиладиган қоидалар (принциплар) ва ҳисоб усуllibарига кўра умумий тавсифга эга бўлиши мумкин.

Бухгалтерия ҳисоби ва молиявий ҳисбот маълумотларини халқаро стандартлар параметрларига келтиришда ягона услубий қўлланмага таяниб бўлмаслигининг асосий сабаби, турли соҳаларда фаолият кўрсатувчи компаниялар тармоққа хос хусусиятлар билан ўз ҳисоб тизимини шакиллантиради ва якка тартибда ўз ҳисоб сиёсатини юритади.

Шунинг учун ҳам молиявий ҳисоботни халқаро стандартлар шакли ва мазмунига келтириш услубиёти ҳар бир компания билан ўз фаолиятига хос ихтисослик хусусиятларини инобатга олиб ишлаб чиқилиши мақсадга мувофиқ.

Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари, бухгалтерия ҳисобини юритиш учун қўлланма эмас, баълки молиявий ҳисоботларни тузиш бўйича стандарт кўрсатмалар мажмуасидир. Шунинг учун ҳам бухгалтерлар унда бухгалтерия ҳисобварқлар (счетлари)ни учратишмайди. Стандартларни молиявий ҳисоботларда акс эттирилган маълумотларни очиб берувчи кўрсатма сифатида қабул қилиши керак.

### **Хулоса ва таклифлар**

Молиявий ҳисоботларни МХХСга мувофиқлаштиришда молиявий ҳисоботларни трансформация қилиш жараёни муҳим роль ўйнайди. Молиявий ҳисоботларни трансформация қилиш бу бухгалтерия ҳисобига оид меъёрий ҳужжатлари асосида шакллантирилган ҳисоб ишларини халқаро стандартлар талаблари асосида қайта гурухлаштириш ва ҳисбот шаклларига тегишли тузатишларни киритиш жараёни ҳисобланади.

Бизнинг фикримизча, молиявий ҳисбот шаклларини МХХСга трансформация қилиш (ўгириш) модели бухгалтерия ҳисобини ташкил этиш ва юритишида бирламчи ҳужжатлардан тортиб, то ҳисоботларни тузиш жараёнини таҳлил қилиш, ҳисобварақлардаги ёзувларни халқарога мувофиқлаштириб чиқиш кабиларни қамраб олади.

Келгусида молиявий ҳисоботларни МХХСга мувофиқлаштиришда, улардаги ҳисоботларни трасформация қилиш ишларини миллий бухгалтерия ҳисоби бўйича бухгалтер ходимларимиз ва мутахассисларимиз томонидан амалга оширилиши мақсадга мувофиқ бўлар эди. Трансформация қўйидаги босқичларда амалга оширилиши лозим деб ҳисоблаймиз.

*Биринчи босқич – тайёрлов босқичи.* Бу босқичда қуйидаги ишлар амалга оширилади, яъни:

МХХС томонидан молиявий ҳисоботларга қўйилган умумий талабларни ўрганиш;

БХМС ва МХХСни таққосланма таҳлил қилиш ва баҳолаш;

МХХС-1 «Молиявий ҳисоботларни биринчи қабул қилиш» номли стандарт талабларини ўрганиш;

МХХС талаблари асосида ҳисоб сиёсатини тузиш.

*Иккинчи босқич – иштирокчиларсиз трансформация босқичи.* Бу босқичда қуйидаги ишлар амалга оширилади, яъни:

- БХМС ва МХХС асосида тайёрланган ҳисоб сиёсатини таҳлил қилиш;
- Трансформацияга тақдим этиладиган маълумотларни жамлаш;
- Ҳисоботнинг компонент шаклини танлаш;
- Ишчи хужжатларни тайёрлаш;
- Тузатиш. Реклассификациялаш;
- Дастребки балансни тайёрлаш;
- МХХС шаклида баланс ва молиявий натижалар тўғрисидаги ҳисоботни тайёрлаш;
- МХХС шаклида хусусий капитал тўғрисидаги ва пул оқимлари тўғрисидаги ҳамда молиявий ҳисоботга тушинтириш хатларини тайёрлаш.

*Учинчи босқич – трансформация ости жараёни.* Бу босқичда қуйидаги ишлар амалга оширилади, яъни:

- Ҳисоботларнинг қўшимча бўлимларини тайёрлаш;
- Инфляцияни ҳисобга олган ҳолда ҳисобот кўрсаткичларига тузатишларни киритиш;
- Молиявий ҳисобот кўрсаткичларини хорижий валюта бўйича таржима қилиш.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Ўзбекистон Республикасининг “Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида”ти Қонуни. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2016 й., 15-сон, 142- модда.
2. Аренс А., Лоббек Дж. Аудит. Пер. с англ. под ред. Я.В. Соколова. - М.: Финансы и статистика, 2013 г. 560с.
3. Адамс Р. Основы аудита. Пер. с анг./под ред. Я.В. Соколова. – М.: ЮНИТИ, 2015 г. 398с.
4. Бенис М. Стандарты и нормы аудита. Пер. с анг. -М.: Аудит. ЮНИТИ, 1995 г. 527с.
5. Додж Р. Краткое руководства по стандартам и нормам аудита. Пер. с анг.: предисловие С.А.Стукова.- М.: Финансы и статистика, ЮНИТИ, 1992 г. 240с.
6. Кармайкл Д., Кеворкова Ж.А. Международные стандарты аудита.. -М.: Юрайт, 2014 г.458с.
7. Робертсон Дж. Аудит / Пер. сангл./Дж. Робертсон – М.: Контакт, 2004 г.496 с.
8. Белавин А.В. Адаптация Международных стандартов финансовой отчетности в деятельность малых и средних предприятий. //«Аудит», №9, 2015 г.
9. Бычкова С.М. Аудиторская деятельность. Теория и практика. – СПБ.: Лань, 2000 г. 320с.
10. Терехов А.А. Аудит: перспективы развития. –М.: Финансы и статистика, 2001 г. 560 с.
11. Чая В.Т. Основы трансформации отчетности малых и средних предприятий в соответствии с МСФО.
12. Шеремет А.Д., Суйц В.П. Аудит. Учебник.- М.: ИНФРА-М, 2009 г. 456 с.

13. Do'stmuratov R.D. Auditning xalqaro standartlari. O'quv qo'llanma. Т.: Ризограф, 2018 й. 146 б.
14. Ибрагимов А.К. Аудитнинг халқаро стандартлари асосида тижорат банклари молиявий барқарорлиги ва ликвидлигини баҳолашни такомиллаштириш. Монография. –Т.: Молия. 2015. 232 б.
15. Исманов И.Н., Маткаримов Д.М. Проблемы подготовки качественных финансовых отчетностей в Республике Узбекистан. //Молия ва банк иши. Электрон журнал. 2016 й.
16. Хасанов Б.А. “Бошқарув ҳисоби ва ички аудит методологиясини такомиллаштириш масалалари”. Дисс. автореф. ... и.ф.д. – Тошкент. 2004 й. 37 б.
17. Тащназаров С.Н. Иқтисодиётни модернизациялаш шароитида молиявий ҳисботнинг назарий ва методологик асосларини такомиллаштириш. Т.: Фан доктори (DSc) диссертацияси автореферати. 2019 й. 70 б.

**NATURE AND CLASSIFICATION OF INVESTMENTS***Uzakova Kamola Bexzodovna,**SamIES assistant**[uzakovakamola5@gmail.com](mailto:uzakovakamola5@gmail.com)**Khalbekov Kamariddin Abdughailovich ,**Production department specialist**GUK " Issiqlik manbai " Samarkand region,**[kamariddin1983@mail.ru](mailto:kamariddin1983@mail.ru)*

**Abstract:** The article presents the approaches of various scientists to the essence of the term “investment”, shows the relationship between them, and highlights the distinctive features of investments in relation to current costs and speculation. The main types of investments are considered and their content is revealed.

**Key words:** project; investments; product; needs; target; external environment; customer; resources, government support, private investment, investment funds, international experience.

Investments are investments of money with the aim of generating income in the future. The source of investment can be the own funds of economic agents, budget funds, bank loans, funds from the foreign sector, borrowed funds from other organizations, etc. The main types of investments: investments in fixed capital (buildings, structures, equipment, machinery, vehicles, etc.), inventories and other material objects, long-term and short-term financial investments in securities, placement of funds on bank deposits and deposits, participation in the capital of enterprises and organizations, granted loans and borrowings, as well as leased fixed assets, investments in intangible assets (patents, licenses, trademarks, copyrights), investments in human capital, etc. Depending on the source of funds, investments can be private, public, foreign or mixed. The types of foreign investments usually include investments made by individuals - citizens of other countries, organizations or other states.

This type of investment refers to financial and portfolio investments. Unlike direct investments, they do not involve the investor's participation in managing the company's activities.

Investment in the securities market is carried out in the form of long-term and short-term financial investments of the investor in securities (shares, bonds, derivative financial instruments, shares, bills, certificates of deposit, etc.). According to the probability of return on invested funds, investments can be classical, venture and speculative. As a rule, classic investments are characterized by a high probability of return on investment. Venture investments, due to their specific nature, have a probability of return on investment of about 50%. Speculative investments involve the greatest level of risk but can provide the investor with the greatest returns.

Depending on the period of placement of funds, they are short-term (up to a year), medium-term (up to three years) and long-term (over three years).

An investment project is an economic project based on investments. It includes a justification of the economic feasibility, volume and timing of direct investment in a certain object, including design and estimate documentation developed in accordance with current standards. It is customary to distinguish between production, scientific and technical, commercial, financial, economic, and socio-economic investment projects.

Investment policy is an integral part of the investment process, which includes determining the investor's goals and his preferences for the relationship between expected profitability and risk. Its main elements are the types of assets in which investments are made, the degree of activity of the investor in managing the investment portfolio, and the purpose of the investment. There is an investment policy developed in the field of personal investment, an enterprise investment policy and a state investment policy.

The latter is a set of interrelated goals and measures to ensure the required level and structure of investment in the country's economy and its individual

spheres and industries, increasing the investment activity of all main agents of reproductive activity: the population, entrepreneurs and the state. The main objective of state investment policy is to create a favorable environment that will help attract and increase efficient use of investment resources for the development of the economy and social environment.

The system of criteria for the effectiveness of investment policy includes such indicators as growth in investment, GDP, physical national consumption per capita and income per capita, increasing the efficiency of economic relations in the market of goods, services, capital, reducing the level of risk of financial instability in the economy, increasing efficiency of the structure of production and consumption of the national product, growth of commodity output and market capitalization of enterprises in priority sectors of the economy, ensuring national strategic interests.

Basic rules for novice investors:

1. Determine the investment goal (quick income or stable income in the long term);
2. Assess the risks, remembering that the higher the profitability, the higher the risk of non-return of invested funds;
3. Develop a strategy.

Thus, a conservative strategy is suitable for investors aimed at preserving their investments and making a small profit. You can diversify your investments by purchasing 75% bonds and 25% stocks in your portfolio.

A moderate strategy aims to grow capital and generate moderate returns. In this case, you can build a portfolio with 50% bonds and 50% stocks.

The aggressive strategy is aimed at high profits, but is also the most risky. The portfolio can be diversified in the following proportion: 75% stocks, 25% bonds.

4. Start investing.

Mistakes of novice investors

- anticipation of fast “mountains of gold”;
- lack of strategy;
- trading on emotions;
- investing all savings;
- lack of basic knowledge about financial instruments;
- ignoring risks;
- investing based on someone else's opinion;
- poor portfolio diversification.

### List of references

1. *Law of the Republic of Uzbekistan, “On investments and investment activities” dated December 25, 2019, No. ZRU-598*
2. *Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan, “On measures to improve the process of attracting and developing foreign investments and loans” dated July 24, 2008, No. PP-927*
3. Lazarev A. *Alternative investments - an integral part of the securities portfolio / A. Lazarev // Bankinr.ru.* - Access mode: <http://bankir.ru/publikacii/s/alternativnye-investitsii-neotemle-maya-chast-portfelya-tsennykh-bumag-10003933/>
4. Bekmurodov, A. A. —Tijorat banklari faoliyatida transformasiyalanish jarayonlarining asosiy yo‘nalishlari.|| Форум молодых ученых 6 (82) (2023): 3-9.
5. Bekmurodov, A. A. "Banklarni trasformatiya qilish sharoitida masofadan xizmat ko‘rsatish tizimini ommalashtirish." Экономика и социум 6-1 (109) (2023): 83-86
6. Mrochkovsky N.S. *Money management. 40 investment strategies / 1st ed. - M.: Imprintlab , 2022.-176 p.*